

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet dekani

_____f.f.d. **B.Abdushukurov**

“ _____ ” _____ 2018-yil

5111200-O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
4-bosqich 403-guruh talabasi **Ubaydullayeva Umidaning “Ta‘lim jarayonida
Abdulla Oripov hayoti va ijodini axborot texnologiyalari vositasida o‘rganish”**
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

_____ **G.Jo‘rayeva**

“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrasini mudiri, f.f.d

Taqrizchilar:

_____ **R.Niyozmetova**

“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrasini professori, p.f.d.

_____ **M.Mirqosimova**

O‘zbekiston Xalqaro
Islom universiteti professori, p.f.d.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

_____ **Z.Mirzayeva**

“O‘zbek adabiyotini
o‘qitish metodikasi”
kafedrasini mudiri, f.f.d.

MUNDARIJA

Kirish.....	3-9
I BOB. TANQIDIY TAFAKKUR BADIY OCHQICH SIFATIDA.....	10-34
1.1. Adabiyot fanidan DTS, o'quv dasturi va darsliklarida tanqidiy baholashni o'rganish masalasi.....	10-23
1.2. Uzlüksiz ta'limda badiiy asar qahramonlarini o'rganish muammolari.....	24-34
II BOB. UZLUKSIZ TA'LIMDA BADIY ASAR QAHRAMONLARINI TANQIDIY BAHOLASHGA O'RGATISH METODIKASI.....	35-59
2.1. O'quvchilarning tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv.....	35-49
2.2. Qahramonlarni tanqidiy baholashda savol va topshiriqlarning o'rni.....	50-59
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI.....	60-70
3.1. Ta'lim muassasalarida tanqidiy baholashni o'rganishga oid tajriba-sinov materiallari.....	60-67
3.2. Tajriba-sinov tahlili.....	68-70
XULOSA	70-73
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	74-76
Ilova	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalarda zamonaviy taraqqiyotni ta’minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, yuksak insoniy fazilatlariga ega kadrlarni tayyorlash mezoni deb qaraladi.

O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgan ilk davrlardanoq intellektual salohiyatli kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati olib borilmoqda. Istiqlol yillarida yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, ijtimoiy qo‘rquvdan holi, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan, milliy va umumbashariy madaniyatdan xabardor, yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim sohasidagi tub islohotlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi jadal rivojlanayotgan axborot asri o‘sib kelayotgan yosh avlodni tez o‘zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlashni taqazo etadi. Axborotlar girdobi ortib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri atrof-olam voqea-hodisalarini mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo‘ladi. Ana shu sabab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari muqaddimasida: “Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcca o‘zgarishlarga daxldorlik

tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo‘lardim”¹, - deb alohida ta’kidlab o‘tadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda muvaffaqiyat qozonish uchun iqtidorning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Ya’ni bugungi davr mutaxassisdan qobiliyat va mehnatdan tashqari mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, masalaning mohiyatini chuqur va teran anglashni, vaziyatni xolisona baholash kabi bir qancha zaruriy ko‘nikmalarni talab etmoqda. Tanqidiy fikrlash kishilarga o‘z salohiyatlarini to‘la namoyon etishlarida yordam beradigan ana shunday ko‘nikmalardan biridir. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini bajarish uchun ham g‘oyat ahamiyatlidir. Shu boisdan ham uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlarini shakllantirish hamda shu orqali ularni o‘z Vatani va xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlovchi irodali insonlar, kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassisi etib tarbiyalash pedagog kadrlar oldida turgan muhim masalalardan biridir. Bu vazifani bajarishda matematika, tarix, falsafa fanlari qatorida adabiyot darslarining ham o‘rni beqiyos. Ma’lumki, adabiyot darslarida erkin va ijodiy fikrlash, mulohaza yuritish uchun imkoniyat kengroq bo‘ladi. O‘quvchilar badiiy asar tahlili jarayonida mustaqil, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirib boradilar.

Insonning mustaqil va tanqidiy baholay olish qobiliyati murakkab ko‘rinishga ega bo‘lganligi sababli adabiyot o‘qituvchilarining ishida asosiy yo‘nalishlardan biri o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlay olish malakalarini tarkib toptirish bo‘lishi lozim.

Psixolog olim E.G‘oziyev o‘smirning aqliy kamoloti haqida gapira turib shunday fikrlarni bayon etadi: “O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagilardan farqli ravishda o‘smirning aqliy kamolotida yangi davr boshlanganligini bildiradi. Maktab ta’limining bevosita ta’siri bilan o‘smirda o‘z-

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008, -B.17.

o‘zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o‘zining fikriga, mustaqil qaroriga, biror masala yuzasidan o‘z mulohazasiga ega bo‘lish uchun harakat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtayi nazardan qaraydi. Ko‘pincha, o‘qituvchining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklar topishga intilib, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga qat’iy e’tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo‘ladi”².

Ko‘rinib turibdiki, bolalarning o‘smirlik yoshidagi aqliy kamolotida boshlangan yangi davrdan foydalanib, umumta’lim maktabi o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mustaqil fikrlash ko‘nikmasiga ega o‘quvchilar esa jahonda tarqalayotgan har bir axborotni mushohada etib, tanqidiy tahlil etib, tegishli xulosalarni bemalol ajratib oladilar.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quvchilarida mustaqil fikr va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda adabiyot o‘quv fanlari orasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Gap shundaki, maktabdagi boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar turli yo‘llar bilan avvaldan ma’lum bo‘lgan bitta yechimga, yagona haqiqatga keladi. Adabiy ta’limda esa o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan masala yuzasidan mustaqil mulohaza yuritib, har biri o‘z yo‘li bilan o‘zining haqiqatini kashf etadi. Boshqa barcha o‘quv fanlari bo‘yicha haqiqat yagona, adabiy ta’limda esa haqiqat turfa bo‘ladi. Shuning uchun ham adabiyot darslarida o‘quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslarini belgilash, uni tashkil etish yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarflik kasb etadi. Adabiyot fanini o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarni badiiy asarni idrok etishga, anglashga, undan estetik zavq olishga yo‘llashdan iborat. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, estetik tamoyillarga tayanib tahlil yuritish vositasida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati tarbiyalanadi, bilimlarni egallash jarayonida tafakkuri takomillashadi. Ayni paytda, adabiy qahramonlar, hayotiy hodisalarni kuzatib, inson shaxsi va ma’naviyati to‘g‘risida mustaqil fikrlaydilar, hayotiy saboq oladilar, xulosa chiqarishga o‘rganadilar.

² G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.: O‘qituvchi, 1994. -B. 149.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish yo'llarini nazariy jihatdan asoslash va o'quvchilarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda mustaqil va tanqidiy fikrlashning o'rni va ahamiyatini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutilgan:

1. O'quvchilarni tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muammosining o'rganilganlik darajasini aniqlash;
2. Adabiy ta'limda o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini ta'minlovchi g'oyalarni tavsiya etish;
3. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish usullarini ishlab chiqish;
4. Adabiy ta'limda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda ta'lim metodlaridan samarali foydalanish usullarini taqdim etish;
5. Tanqidiy tafakkurni shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni va ahamiyatini ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Qadimgi va o'rta asr Sharq va Yevropa mutafakkirlari ta'lim jarayonida bola o'z fikriga ega bo'lishi lozimligini juda ko'p ta'kidlashgan. Aristotel, Suqrot, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab olimlar mustaqil fikrlay olishga shaxsning asosiy xususiyati sifatida qarashgan.³

S.H.Yamonova adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariy o'qitish usulidan foydalanish⁴; Q.P.Husanboyeva adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari⁵; B.X.Xodjayev umumta'lim maktabi

³ Hoshimov K., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T.: O'qituvchi, 1996. –B. 446.

⁴ Yaminova S.H. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariy o'qitish usulidan foydalanish: Pedagogika fanlari nomzodi...dis. – T.: 1997. –B. 168.

⁵ Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Diss. ...ped.fan.dok. – T., 2007. –B.262.

o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari⁶ yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. M.Mirqosimovaning doktorlik ishi o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, buning zahirida ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, ijodiy qobiliyatini tarbiyalash yotadi. Ishda taqdim etilgan asarlarning qiyosiy tahlili, muammoli ta’lim, munozara darsi, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlar o‘quvchining tafakkuri shakllanishi va mustaqil rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi.⁷

S.Dolimov, S.Ismatov, Q.Ahmedov, A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, T.Boboyev, S.Matjonov, M.Mirqosimova, T.Niyozmetova, S.Yaminova, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish borasida fikrlar mavjud. Ular o‘z ishlarida mustaqil va tanqidiy fikrlashning ahamiyati masalasiga u yoki bu darajada to‘xtalganlar.

Adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga oid ishlar kam bajarilgan. Bu masala ayrim metodist olimlarimizning ishlarida muayyan darajada o‘rganilgan. Q.Qo‘ldoshev⁸, S.Matjonov⁹, B.To‘xliyev¹⁰, R.Niyozmetova¹¹ kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish bilan bir qatorda badiiy asar qahramonlarini baholashga oid qarashlar mavjud. A.Boltayeva “Adabiyot darslarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish negizida o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish metodikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlamoqda. Biroq badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish tadqiqot obyekti sifatida hali to‘liq o‘rganilmagan.

⁶ Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7-sinf tarix darslari misolida: Pedagogika fanlari nomzodi...diss. – T., 2009. –B.174.

⁷ Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped.fan.doktori...diss. – T., 1995.

⁸ Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. –B.67.

⁹ Matjonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? – T.: O‘qituvchi, 1993. –B.47.

¹⁰ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. –B.58.

¹¹ Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007. –B.89.

Hozirgi vaqtda umumta'lim maktablarida o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq bu faoliyatni pirovard natijalarga olib keluvchi jarayonlarni maxsus ilmiy asosda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Uzluksiz ta'limda badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish usullari yaxlit tadqiqot doirasida ilmiy jihatdan asoslanmagan.

Tadqiqotning obyekti. Respublikadagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari mazkur tadqiqotning obyekti etib olindi.

Tadqiqotning predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiyot darslari, adabiyot bo'yicha o'quv dasturi va darsliklaridan iborat.

BMIning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma'naviyat, adabiyot va san'atga oid qarashlari, shuningdek, o'zbek adabiyotshunos va metodist olimlaridan I.Sultonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, B.To'xliyev, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, R.Niyozmetova va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o'tadi.

Tadqiqotning metodi. Mavzuni yoritishda kuzatish, suhbat, qiyosiy-tipologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. BMIda quyidagi ilmiy-metodik muammolar o'z yechimini topdi:

Uzluksiz ta'lim tizimida badiiy asar qahramonlarini baholash usullari o'rganildi. Asar qahramonlariga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy tafakkurini o'stirish masalasi tatqiq etildi. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish masalasi kuzatildi. O'quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda innovatsiyaning o'rnini yoritildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida adabiyot o'qitish metodikasi o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishni o'rgatishga oid nazariy-metodik yondashuvlar, qarashlarga ega bo'ldi. Shuningdek, o'quvchilarni tanqidiy baholashga o'rgatishning o'ziga xos shakllari, vositalari, metodlari va texnologiyalari bilan boyitildi.

O'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari talabalari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish metodikasi bilan qurollanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TANQIDIY TAFAKKUR BADIY OCHQICH SIFATIDA

1.1. Adabiyot fanidan DTS, o‘quv dasturi va darsliklarida tanqidiy baholashni o‘rganish masalasi

Ma'lumki, tanqidiy fikrlash kishilarga o'z salohiyatlarini to'la namoyon etishlarida yordam beradigan va bugungi tezkor axborot asri uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Bugungi kunda yuz berayotgan voqealar miqyosining o'zgarib borishi natijasida axborotga mustaqil yondoshib, uni chuqur tahlil qila oladigan, tanqidiy baho bera oladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ilmning barcha sohalarida axborotlar seldek oqib kelayotgan hozirgi davrda o'quvchilar mazkur axborotlardan o'zlari uchun foydali bo'lgan jihatlarini ko'rib chiqib, o'z tasavvurlariga muvofiq axborot va fikrlarni mustaqil ravishda baholashni o'rganishlari lozim. Ular yangi fikrlarni har tomonlama ko'rib chiqa olishlari, mazkur axborotlarning qimmatini va aniqligiga doir xulosalar chiqarishlari, o'z maqsad va talablari asosida fikrlarning umumiy qimmatini belgilay olishlari lozim. Shuningdek, hozirgi kunda axborotlarning jadallik bilan kengayib borishi o'quvchilarda erkin va tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqaligina turli axborot xurujlaridan samarali himoyalana olish imkonini berishini ham aytib o'tish zarur.

Demokratik jamiyatda erkin va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslar qadr-qimmatga ega bo'ladilar. O'z navbatida ular boshqalarning intilish va fikrlarini qadrlay oladilar.¹²

Erkinlik – mustaqil fikrlash uchun qo'yilgan birinchi qadamdir. Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning erkinlik darajasiga bog'liq.

Fikrlash – aqliy faoliyat mahsuli. Fikr olamdagi voqea-hodisalarning ongimizga ta'sir etishidan hosil bo'lgan tuyg'udir. Fikrlash esa shaxsning bilish faoliyati jarayoni mahsuli, u voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish

¹² Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: O'qituvchi, 1997. -B.183.

bilan xarakterlanadi. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi.

Mustaqil va tanqidiy tafakkur, umuman, tafakkur haqida dunyoning A.Ballon, P.Yakobson, L.Vigotskiy, D.Brushlinskiy, D.Bogoyavlinskiy, V.Davidov, M.Davletshin, E.G'oziyev, B.Karimova, R.Sunnatova singari psixologlari bir qancha qarashlarni ilgari surganlar.

Tafakkur xususiyatlari o'rganilgan tadqiqotlardan ma'lumki, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida aks etadi. Aqliy faoliyatda tanqidiylik fikrlovchi kishining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida ko'rinadi. Borliqqa chuqur, asosli va tanqidiy munosabat inson aqliy tafakkuri mustaqilligini namoyish etishning belgilaridan sanaladi.

Xo'sh, tanqidiy fikrlash nima? Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi. Adabiyotlarda bu tushunchaga berilgan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin.

Tanqidiy fikrlashni aqliy faoliyatning boshqa shakllaridan farqlash kerak bo'ladi. Ba'zan o'rganilayotgan narsaning teskarisini bilish uni to'la anglashga xizmat qiladi. Shuning uchun tanqidiy fikrlashgacha bo'lgan jarayonda aqliy faoliyat ko'nikmalaridan ba'zilarini ko'rib chiqsak; lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. **Esda saqlash** – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va

imtixonlarda, asosan, o'quvchi, talabalar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

O'quv jarayonini usiz amalga oshirib bo'lmaydigan "notanqidiy fikrlash" turlaridan yana biri – **murakkab g'oyalarni tushunish** bilan bog'liq. Biologiya va matematika, tarix va adabiyot darslarida talabalar ba'zan o'qituvchining aytganlari yoki darslikda nima haqida yozilganligini tushunish uchun ancha "bosh qotiradilar". Tushunish, ayniqsa, agar o'quv materiali qiyin bo'lsa, murakkab aqliy jarayon hisoblanadi. Masalan, o'quvchi teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta, uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Biz o'zgaralar fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz, birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo'ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz, xolos. Tanqidiy fikrlash esa yangi, tushunib bo'lingan g'oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo'llanayotganda sodir bo'ladi. Dalillarni eslab qolish va g'oyalarni tushunish tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan dastlabki shartlardir, lekin ular o'zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydi.

"Tanqidiy fikrlash" tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – **ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlash**dir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo'ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

U holda "tanqidiy fikrlash" nima?

"Tanqidiy fikrlash" atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash "yuqori tartibdagi fikrlash"ni bildiradi – yuqori deganimiz shu ma'nodaki, u Benjamin Blum tizimiga ko'ra, o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalarini tushunadilar, uning yordamida o'quvchilar diqqat bilan o'qish, chuqur

munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkoniga ega bo'ladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta'sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sabablarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish "tanqidiy" deb hisoblanadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish") loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: "Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtayi nazarini ishlab chiqadi". Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarning ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiylanayranglar kamroq ta'sir qiladi, o'zining shaxsiy qarashlar tizimi bo'lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu aqliy faoliyatning eng yuqori darajasi bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash ta'lim jarayoniga jo'shqinlik baxsh etadi, mashg'ulotlarni o'qituvchi va talaba uchun quvonchga aylantiradi.

Hozirda o'quvchilarni o'qishga o'rgatish va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifalardan sanaladi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, o'quvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtayi nazardan qarashi, undan o'z

ehtiyoj va maqsadlari yo'lida foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagilar bo'lishi kerak:

- o'quvchida o'ziga xos nuqtayi nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- bahsni dalillab olib borish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta'sir qilishini

tushunish.

O'quvchilarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o'rganish emas, balki ularni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan metod eng yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni haqiqatda bezovta qiluvchi muammolar haqida so'z borganda tashabbus ularning o'zidan chiqqanda, tanqidiy fikrlash yaxshiroq rivojlanadi. Tanqidiy fikrlashda o'quvchi voqelikni to'la anglab, tafakkurida analiz qilib, munosabat bildiradi. Tanqidiy fikrlash ba'zan aniq-ravshan ko'rinib turgan voqelikka nisbatan ham shubha bilan qarashdir. Ha, ba'zan shubha ham jarayon rivojiga hissa qo'shadi. Ya'ni o'quvchida voqelikka nisbatan "Nega shunday?", "Nega mana bunday emas?" qabilidagi savollar paydo bo'ladi va endi u o'z savollariga javob axtara boshlaydi, dalillar to'playdi. Ayniqsa, adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida tanqidiy qarashlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tanqidiy tafakkurni shakllantirishda ham badiiy asar va uning qahramonlari tahlili ahamiyatlidir. Bu jarayonni to'g'ri va samarali tashkil etish adabiyot o'qituvchisining kasbiy mahoratiga bog'liq. Chunki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish murakkab jarayon. Tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. O'qituvchi ijobiy natijaga erishish uchun, avvalo, sinfda ma'lum bir muhitni yuzaga keltirishi lozim. Xususan,

- o‘quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
- turli g‘oya va fikrlarni qabul qilish va rag‘batlantirish;
- har bir o‘quvchini tanqidiy mulohaza yurita olishiga ishonirish;
- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faolligini ta‘minlash;
- munozaralarga imkoniyat yaratish;
- paydo bo‘lgan tanqidiy fikrlarni qadrlash.

Tanqidiy fikrlash ta‘lim jarayoniga qizg‘inlik, jo‘shqinlik baxsh etadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslashga intiladilar, qarama-qarshi fikrlarga duch keladilar, fikrlarni o‘zaro taqqoslaydilar va natijada tub mohiyatni ancha teran anglaydilar.

Bu, eng avvalo, adabiyot darslarida badiiy asar tahlili vositasida amalga oshadi, ya‘ni o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur bevosita adabiy tahlil malakasi asosida shakllanadi. Adabiy tahlil ko‘nikmasini shakllantirishning asosida esa badiiy asarni o‘rganish yotadi. Adabiy tahlil asarning badiiy, estetik va lingvistik jihatlarini o‘rganishdir. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirishda o‘qituvchining adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilikka oid bilimlarining yetarlicha bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish jarayonida badiiy asarlarga tanqidiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi ham tarkib toptiriladi.

Dars jarayonida asar tahlilini to‘g‘ri tashkil etish, aniq maqsadli usullarni tanlay olish, darsni ilmiy-metodik asosda tashkil etish, o‘quvchilarni tahlilga yo‘llash, namunaviy tahlil darsini o‘tkazish, o‘quvchilarni eng ko‘p darajada mustaqil fikrlashga undash – adabiy tahlildan ko‘zlanadigan ta‘limiy maqsadlar hisoblanadi. Shuningdek, badiiy asar tahlili orqali o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, estetik did va ijodkorlik sifatlarini kamol toptirish adabiyot o‘qituvchisi oldidagi ustuvor vazifalardandir. Har qanday adabiy asar tahlili undagi qahramonlar timsolini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Nasriy asarlarning sujeti markaziy qahramonlarning ruhiyatini ochishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Turli-tuman obrazlar, xilma-xil ruhiy holatlar, insoniy kechinmalar tasviri yozuvchi mahoratini

anglashga xizmat qiladi. Epik asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchi e'tibori yana INSON muammosiga qaratiladi. O'quvchi inson va uni qurshab turgan olamdagi chigalliklarning guvohiga aylanadi. Boshqa adabiy tur va janrlarda yaratilgan asarlardan farqli epik turda yaratilgan asarlar qahramon obrazi ustida amaliy ish olib borish uchun o'quvchiga katta imkoniyat beradi. Badiiy asar qahramonlarini o'rganish, ularni tahlil qilish davomida o'quvchilarning har bir obrazga nisbatan munosabati, uning xatti-harakatlarini baholovchi hukm – xulosasi yuzaga keladi. O'quvchi o'zining mustaqil qarashlarini bayon etishga, fikrlarini asoslashga o'rganadi, murakkab hayotiy masalalarni hal etish ko'nikmasiga ega bo'lib boradi. Adabiy qahramonlar tahlili o'quvchilarda hodisalarni chuqur tahlil etish, baho berish, xolis va tanqidiy munosabatning qaror topishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarda adabiy tahlil ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosda ularda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish Davlat ta'lim standartlarida belgilangan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadiga erishish uchun ham muhimdir.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish¹³.

Badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish DTSda belgilangan tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalardan quyidagilarni amalga oshirish uchun ham muhimdir:

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

¹³ Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. —T.: 2017. -B.15.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Adabiyot fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga badiiy asar tahlili bo‘yicha qo‘yiladigan malaka talablari quyidagilar:

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A1

- matndagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna oladi;
- asar mazmunidan ta’sirlana oladi;
- xalq og‘zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;
- o‘rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;
- asar qahramonlariga munosabat bildiradi oladi;
- o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

- mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi oladi.

A2

- xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she’riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi va tahlil qila oladi;
- badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topib, tahlilda foydalana oladi;

- asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;
- badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;
- asar qahramonlari xarakteriga xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;
- xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;
- musiqa yoki rang-tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

A2+

- asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;
- adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildira oladi.
- asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

B1

- badiiy ijod namunalarini (nasriy, she'riy, dramatik asarni) ifodali o'qiydi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi, anglaydi va idrok etadi;
- badiiy asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o'zgalarga tushuntirib beradi, tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi;
- shaxs sifatida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlaydi, o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi;
- xalq maqollari, matallari, aforizmlardan og'zaki nutqda o'rinli foydalanadi;
- she'riy matn yoki uning parchasini ifodali yod ayta oladi.

B1+

- o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini ifodali o'qiydi, she'riy san'at turlari, janr xususiyatlarini ajrata oladi;

- musiqa va rang-tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qiladi va uni soʻz bilan ifodalay oladi;

- adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarini tushuntira oladi;

- asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida (barcha taʼlim olish tillari boʻyicha) adabiyot fanini oʻrganish bosqichlari

Taʼlim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy oʻrta taʼlim	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Adabiyot fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining Adabiyot fani chuqur oʻrganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Adabiyot fanini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi
	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Adabiyot fanini oʻrganishning tayanch darajasi
	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining Adabiyot fani chuqur oʻrganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2+	Adabiyot fanini oʻrganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi	Adabiyot fani chuqurlashtirilmagan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilari	B1	Adabiyot fanini oʻrganishning umumiy darajasi
	Adabiyot fani chuqurlashtirilgan oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilari	B1+	Adabiyot fanini oʻrganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Maʼlumki, ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning oʻzi tomonidan bevosita kuzatilmaydi. Bu jarayonni bevosita adabiy taʼlim bilan bogʻlab shuni aytish mumkinki, oʻquvchi taʼlimning har bir bosqichida oʻrganilayotgan badiiy asar qahramonlarini oʻziga xos tarzda qabul qiladi. Masalan, kichik maktab

yoshidagi o'quvchilar (7-11 yosh) adabiy qahramonning shaxsi, xatti-harakatlari bilan tanishish asnosida undagi umumiy, axloqiy sifatlarni ilg'ab olishadi. Ularning xulosalari, ko'pincha, bir taraflama bo'lib, asardagi voqea-hodisalar asosida keskinlik bilan chiqariladi. Bola xayolan asar qahramonlari bilan birgalikda sarguzashtlarda ishtirok etar ekan, qahramonning shaxsiy sifatlari bilan emas, matndagi lavhalar, voqealar rivoji bilan ko'proq qiziqadi. O'rta maktab yoshiga yetgan o'quvchida qahramonni baholashda keskinlik va biryozlamalik avvalgiga nisbatan kamayadi. Bu yoshdagi bolani shaxsning axloqiy sifatlari, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar ko'proq qiziqtiradi. Ammo kichik o'smir ham adabiy qahramonni barcha jihatlarini inobatga olgan holda yaxlit baholashga qodir emas. U ko'pincha qahramonning u yoki bu fazilatiga urg'u bergan holda shaxsini baholaydi. Mustaqil muhokama qilish yoki tanqidiy tahlil ularning faoliyatida ancha chegaralangan bo'ladi. Bu bosqichdagi o'quvchilar bilimlarni tayyor holda olib, o'ta maydalangan darajada qabul qilishni xushlamaydilar. Mustaqil fikr aytish istagi, o'rganganlari orasidan o'zinikini ajratib ifodalashga harakat quyi sinflarda, hatto 5-sinf o'quvchisida ham kam uchraydi. Ular 6-sinfdan boshlab o'zlarida mustaqil fikrlash sifatini namoyon eta boshlaydi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda (16-17 yosh) o'rta maktab yoshida shakllana boshlagan inson tuyg'ularini, uning dunyoqarashini tushunishga bo'lgan qiziqish ortib boradi. Sinflar yuqorilab borgan sari bolalar tanqidiy mulohaza yurita boshlaydilar, tortishadilar, muammo mazmuni yuzasidan salmoqli savollar bera boshlaydilar.

Tajribadan ma'lumki, darsdan tashqari biror qiziqarli hayotiy hodisa yoki kino muhokama qilinganda o'quvchilarning tillari "yechilib ketgandek" bo'ladi. Shunday vaziyatlarda ular o'z aqliy va yosh imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq narsalarni bilishi ma'lum bo'lib qoladi. Darsliklarda dars jarayonida bolalarni xuddi shunday qiziqtiradigan, ularni o'ylantiradigan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzular ko'proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etiladigan savol-topshiriqlarning turfaligi darslarda yuqoridagi kabi vaziyatlar yuzaga kelishining

asosi bo'ladi. O'quvchilarning o'z ruhiy muvozanat qobig'idan chiqishi esa ularni ma'naviy kamolot sari yetaklash garovidir.

Bola ayrim hollarda hatto mustaqil ravishda mulohaza yuritishni unutib qo'yishi ham mumkin. Chunki uning o'rniga o'qituvchi o'ylaydi. O'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni tayyor holda beradi, savollar qo'yadi, berilishi lozim bo'lgan javoblar variantlarini taklif etadi. Beriladigan savol va topshiriqlarning yechilish yo'llarini tavsiya etadi. O'quvchi o'rganilayotgan o'quv materialini eslab qolishi, uni uyda takrorlashi va mustahkamlash mashqlarini bajarish lozim bo'ladi, xolos. Ma'lumki, bunday ta'lim o'quvchidan ijodiy fikrlashni talab qilmaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi imkon qadar kengroq, chuqurroq bilim berishga harakat qilgani tufayli o'quvchida unga savol berish ehtiyoji ham yo'qola boradi. Bolalarga bu tarzda berilgan bilim ularni doimiy xizmat ko'rsatilishi lozim iste'molchiga aylantirib qo'yadi. Bunday ta'lim o'quvchidan mustaqil ravishda ijodiy o'rganishni talab qilmaydi. Bir necha yillik shunday o'qitish natijasida bola mustaqil ravishda biror qadam bosolmaydigan faoliyatsiz kimsaga aylanadi.

Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi tushunilib, uning asosini axborotlar tashkil qiladi. Tanqidiy tafakkurning aniqlanishi vaziyatlarni bashorat qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu kuzatish, umumlashtirish, qiyoslash, farazlarni ilgari surish, aloqalar o'rnatish, o'xshash holatlarni muhokama qilish va uning sabablarini topish, o'rganilayotgan masalaga ijodiy yondashish kabilarni o'z ichiga oladi. Axborotlarni idrok etish uch bosqichda amalga oshadi. Bu darsning xuddi shunday davrlariga to'g'ri keladi:

- Tayyorlov bosqichi – bu o'z navbatida undash bosqichi ham hisoblanadi.
- Yangi hodisalarni idrok etish bosqichi – bu fikrlash yoki ularni amaliyotga tatbiq etish davri hisoblanadi.
- Axborotlarni o'zlashtirish bosqichi – bu tahlil qilish bosqichi hamdir.

Mazkur bosqichlarning har biri muayyan vazifani bajaradi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash asosida asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatish bosqichlari va ularning vazifalari

Bosqichlar	Vazifalari
Undash	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Moyillik hosil qilish; yangi axborotlar bilan ishlashga undash, yangi asarga nisbatan qiziqish uyg‘otish. ➤ Axborot berish; mavzuga oid bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirish. ➤ Aloqaga kirishish; ziddiyatlarga bormasdan o‘zaro fikr almashinish.
Asar mazmunini idrok qilish	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Axborot berish; asar mazmuni haqida yangi axborotlarga ega bo‘lish. ➤ Tizimga solish; o‘zlashtirgan axborotlarni tasniflash. ➤ Mayllar hosil qilish; badiiy asarga nisbatan qiziqish uyg‘otish.
Tahlil	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Muloqotga kirishish; o‘rganilayotgan yangi asar haqida o‘zaro fikr almashish. ➤ Axborot berish; yangi bilimlarni egallash. ➤ Mayllar hosil qilish; axborot ko‘lamini kengaytirishga undash. ➤ Baholash; yangi axborotlar bilan mavjud bilimlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, o‘z nuqtayi nazarini ishlab chiqish, badiiy asar qahramonlari xatti-harakatini baholash.

O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatadigan darslar o‘z shakliga ko‘ra **an’anaviy darslardan** farq qiladi. Bunday darslarda o‘quvchilar faol harakatlanuvchi subyektga aylanadilar. Bu o‘rinda o‘quvchilar badiiy asar matniga nisbatan ijodiy yondashuvni amalga oshiradilar.

O'quvchilar badiiy asarni alohida diqqat bilan o'qiydilar, bir-birlariga so'zlab beradilar, tahlil qiladilar, asar voqealari atrofida munozaraga kirishadilar, buning natijasida esa o'zlarining mustaqil qarashlarini bayon etadilar. Bu jarayonda badiiy asar qahramonlariga bevosita tanqidiy baho beradilar. Bunday tanqidiy baho ularda izchil tarzda shakllangan tanqidiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Bu o'rinda o'qituvchi muvofiqlashtiruvchi mavqeni egallaydi.

Adabiyot o'qitish metodikasida darslarning mazmuni va tarkibini o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Adabiyot darslarining tarkibi, uning o'quvchilarga axloqiy-estetik ta'siri, unda vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlarning mohiyati, rivojlantiruvchi ta'lim tizimida mazkur mashg'ulotlarning tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, ijodiy va hissiy xarakter kasb etishi, o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga undashi, dars shakllarining o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Adabiyot darslari bir qator o'ziga xos shakllarga ega. Ular: ma'ruza darslari, seminar mashg'ulotlari, munozara darslari, amaliy mashqlarga mo'ljallangan darslar kabilar.

Darslarning tipologiyasi, o'quv predmetini o'qitish jarayonidagi o'rni ham bir qadar tadqiq etilgan. Biroq adabiyot o'qitish maqsadlari, mazmuni va metodlarining rang-barangligidan kelib chiqqan holda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish taqozo qilinmoqda. Adabiyot darslarining har bir turida o'qitish nazariyasi va amaliyoti darsning ko'plab turlarini farqlashi talab qiladi. Har bir tur esa turli-tuman ko'rinishga ega bo'lgan darslarni tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

1.2. Uzluksiz ta'limda badiiy asar qahramonlarini o'rganish muammolari

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida adabiy qahramonning o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Darsda asar ustida ishlash mobaynida adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'zi shaxs sifatida shakllanadi. O'quvchining asar qahramonlariga munosabatiga qarab uning shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas.

Maktab davrining turli bosqichlarida bolaning tashqi ta'sirga beriluvchanligi ham, badiiy asardagi timsollarni qabul qilish darajasi ham o'ziga xos bo'ladi. Adabiyot darslarida har bir bolaning bunday xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning individual hamda umumiy faoliyatini to'g'ri tashkil qila bilish adabiy ta'limning bosh maqsadiga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning har narsaga qiziqadigan, bilishga bo'lgan intilishi so'nimgan davrida unda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr sohibini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. "Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertak to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish–fikrning dushmani", – degan edi ulkan ertakchi adib J.Rodari.

Yosh psixologiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, o'quvchi bir narsani ikki marta eshitishni xushlamaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida, hatto bugun ham o'quvchi bitta ma'lumotni to'rt marta – o'qituvchi o'quv materialini yangi mavzu sifatida tushuntirganida, uni mustahkamlaganida, uy vazifasini bajarish mobaynida va keyingi darsda javob berish jarayonida duch keladi. Hamma darslarning shu tarzda olib borilishi o'quvchidagi qiziquvchanlikni susaytirib, ta'lim-tarbiya jarayonini avtomatlashtirib qo'yadi. Hamonki, gap o'quvchining hayoti va uning ta'lim-tarbiya olishi haqida ketar ekan, fikrlash bola faoliyatining oliy darajasi tarzida qo'yilishi kerak.

Adabiyot, asosan, insonning tuygʻulari bilan ish koʻradi. Oʻquvchi badiiy soʻz koʻmagida yaratilgan adabiy qahramonni oʻzicha tasavvur qiladi. Shu asosda koʻnglida shaxsga munosabat shakllanadi. Oʻzgalarning tuygʻularini koʻz bilan koʻrib, qoʻl bilan ushlab boʻlmaydi. Ularni tuyish, his qilish, tasavvur etish kerak boʻladi.

Maʼlumki, oʻsmirlik davri uchun tafakkurning mustaqilligi, tanqidiyligi shiddatli taraqqiyot pallasiga kirishi xarakterlidir. Bola oʻzining shaxsiy fikri, mustaqil qarashi, biror masala yuzasidan oʻz qarashlariga ega boʻlishga harakat qiladi. Shuning uchun u oʻqituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklardagi xulosalarga nisbatan tanqidiy nuqtayi nazar bilan qaraydi. Tanqidiylik oʻsmir tafakkurining asosiy xususiyatlaridan boʻlib, u oʻzga fikrlarni turli bahonalar, sabablar bilan yoʻqqa chiqarishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Buning oldini olish uchun adabiyot darslarida oʻquvchilar oʻz qarashlarini dalillar koʻmagida asoslashga odatlantirilishi kerak. Oʻsmir oʻzi hukm chiqarib, uning toʻgʻri ekanini oʻzi isbotlay olishi zarur.

Adabiyot darslarida oʻquvchi tafakkuri toʻgʻri rivojlanishi uchun uni toʻgʻri taʼrif berishga, tahlil qilishga, taqqoslashga, umumlashtirishga odatlantirish, oʻz fikrini toʻgʻri, ravon, aniq ifodalash va asoslashga oʻrgatish, mustaqil ravishda hukm, xulosa chiqarish, mulohaza yuritishga yoʻnaltirish kerak. Fikr yuritishning bunday shakllari ularda aqliy koʻnikma va malakalarni oʻstiradi. Natijada, aqliy rivojlanish amalga oshadi, mustaqil fikr kishisi shakllanadi.

Asar matni ustida ishlash bir necha bosqichlardan iborat boʻladi. Asar mazmunini oʻzlashtirish va tahlil qilish jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga boʻlish mumkin:

- Asarni ifodali oʻqish;
- obrazlarni tavsif qilish;
- adibning maqsadini aniqlash;
- badiiy tasvir vositalarini belgilash;
- asarning adib ijodidagi, oʻzbek adabiyotidagi oʻrnini belgilash.

Bu bosqichlarni sinf xususiyati va o'qituvchining bilim, tajribasiga ko'ra kengaytirish ham mumkin.

Badiiy asar ifodali o'qilgandan so'ng uning mazmunini o'zlashtirish jarayoni boshlanadi. O'qituvchi asar mazmunidagi qahramonlarning ruhiy holatlari aks etgan lavhalarga ko'proq e'tibor bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har qanday adabiy asar tahlili undagi qahramonlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Epik adabiy turga mansub hikoya, qissa, roman, epopeya singari janrlarda yaratilgan asarlarning sujet, kompozitsiya unsurlari markaziy qahramonlar timsolini yoritishga yo'naltirilgan holda shaklan yaxlit va uzviy birlikni tashkil etgan bo'ladi. Bosh qahramon obrazlari orqali o'quvchilar yozuvchining hayotiy muammolarga, inson shaxsiga, ziddiyatli hodisalarga munosabatini anglab boradi. Asarning barcha unsurlari bilan uning mazminini yoritishga xizmat qiluvchi vositalar epik tafakkur miqyosini yuzaga keltiradi. Inson va uni qurshab turgan olamdagi chigal munosabatlar, hayotiy ziddiyatlarni o'quvchi kuzatib, bu hodisalarning jonli guvohiga aylanadi, har bir masalaga o'z munosabatini bildirish imkoniga ega bo'ladi. Boshqa adabiy tur va janrlarda yaratilgan asarlardan farqli ravishda nasriy asarlardagi qahramon timsoli amaliy ish olib borish uchun o'quvchiga katta imkoniyat beradi.

Badiiy asardagi qahramon timsoli ustida ish olib borilganda o'qituvchi ikki muhim jihatga e'tibor berishi zarur:

1. Asardagi qahramonlar insonning tipik timsolimni namoyon etadi.
2. Asar qahramoni yozuvchining ijodiy fantaziyasi, san'atkorligi natijasida yaratilgan badiiy timsoldir.

Demak, o'quvchi ongida ana shu ikki tasavvur va tushunchani timsollar tahlili yordamida uyg'unlashtirishga erishish lozim. Nima uchun hamisha ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash kechadi? Nima uchun inson muammosi hamisha adabiyot va san'atning bosh masalasi bo'lib kelgan? "Adabiyot – insonshunoslikdir", deyilishining boisi nimada? kabi savollarga o'quvchilar asar markazidagi timsollarni o'rganish orqali javob topishlari mumkin. Ayni paytda, timsollar ustida amaliy ish olib borish davomida o'quvchining har bir timsolga

nisbatan munosabati, uni baholovchi ma'naviy me'yorlari, shaxsiy xulosasi yuzaga keladi. U o'zining mustaqil qarashlarini dalillar asosida bayon etishga o'rganadi.

O'qituvchi o'quvchilarga singdirilishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikma va nazariy bilimlarni, badiiy ijodning muhim qonuniyatlarini chuqur tushunishlari uchun imkon yaratmog'i shart. Buning uchun o'qituvchi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

1) Asar timsollari, sujeti, kompozitsiyasi, epizodlari ustida ish olib borish orqali asar g'oyasini, qahramonning ruhiyatini yoritishga va adabiy timsol qiyofasini gavdalantirishga xizmat qiluvchi tasvirlarni tanlash, ifodali o'qish, sharhlash;

2) o'quvchilarni asar matni ustida ishlash jarayonida badiiy til xususiyatlarini o'rganishga yo'llash;

3) yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlarini aniqlashga erishish vositasida o'quvchilarni san'at asarlarini badiiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida baholashga o'rgatish.

Badiiy asar tahlilida asarda harakatlanuvchi personajlar tizimi kompozitsiyasiga alohida diqqat qaratish kerak bo'ladi. Personajlarning o'zlarini tahlil qilishga emas, balki aynan ular o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar tizimi, ya'ni kompozitsiyani tahlil qilishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bu yumushni qulaylashtirish uchun asarda qatnashadigan timsollarni syujet markazida turuvchi, mustaqil xarakterga ega bo'lgan va asar mazmunining barcha darajalariga bevosita aloqador *bosh*, sujet rivojida faol qatnashadigan, o'ziga xos tabiatga ega bo'lgan, lekin muallif e'tibori kamroq qaratilib, ko'pincha bosh qahramon timsolining to'laroq ochilishiga xizmat qiladigan *ikkinchi darajali* va asar davomida bir-ikki lavhadagina ko'rinib, o'ziga xos xarakteri tasvirlanmaydigan, vazifalari kerak bo'lganda syujet rivojiga turtki berish yoki bosh hamda ikkinchi darajali obrazlarning biron-bir jihatini bo'rttirib ko'rsatishga

xizmat qilishdan iborat bo'lgan *epizodik* singari turlarga tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi¹⁴.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligini va tanqidiyligini ta'minlash va rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalillashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishni, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishni, vaziyatga tanqidiy yondashishni, birovlariga yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar o'z fikrini aytishni o'rgatishi kerak. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib, uning qimmatini aniqlashga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikdan kelib chiqadi. O'quvchilar oldiga har xil adabiy qahramonlarni mustaqil taqqoslash, ularning tabiatiga xos bo'lgan o'xshash va farqli tomonlarini topish talabini qo'yish yaxshi samara beradi. O'quvchida umumlashtirish ko'nikmasini hosil qilish uchun, avvalo, uni konkret shaxs yoki hodisani kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini ko'ra bilish, umumiy va xususiy jihatlarni, ikkinchi darajali narsalarni ajrata bilishga yo'naltirish kerak.

Uzluksiz ta'limda badiiy asarlarni o'rganish jarayonini kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, matnni o'zlashtirishning chuqurligi va to'laligiga erishish o'quvchining muallif tomonidan yozilgan hodisalarni, qahramon xatti-harakatlari, kechinmalarini, personajlarning tabiatini qanchalr chuqur, aniq tasavvur qilishi, his etishiga bog'liq. Adabiyot darslaridagi asosiy ishlardan biri asarlarning badiiy tahlilidir. Badiiy tahlil ba'zan ma'lum bir estetik yaxlitlikni maydalash, uni bo'laklarga bo'lish, biror qism, belgini ajratib olib, unga munosabat bildirish, ba'zan esa sintezlash: qismlar, tomonlarni qo'shish, ma'lum bir jihatlarni umumlashtirish va xulosa chiqarish tarzida amalga oshiriladi. Analiz va sintezning o'zaro aloqasi hamda bir-biri bilan bog'liqligi inson tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi.

¹⁴ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. –B.188.

Adabiy ta'lim jarayonida taqqoslash tafakkurning oddiy, shu bilan birga favqulodda ahamiyatli turi hisoblanadi. U muayyan umumiylikka ega bo'lgan har xil hodisalarni qiyoslashda yuzaga keladi. Ayni vaqtda, umumiy belgilarga ega bo'lgan predmetlarni taqqoslashda ularning farqli tomonlari ham ko'rinadi. Aks holda ular bir-birlarini takrorlab qo'yadi. Ikki yoki bir nechta timsol tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi (analiz qiladi) va ularni taqqoslagan holda umumiy tomonlarini tayin etadi (sintez qiladi). Taqqoslash va tasniflash tafakkur faoliyatlarini tizimga soladi.

Badiiy asar tahlili jarayonidagi muhokamalarda asar, odam yoki hodisa, ularning o'zaro aloqasi yoki munosabatlari ochiladi. Ma'lumki, badiiy asar insonning ichki dunyosi, fikr, tuyg'u va tushunchalariga ta'sir ko'rsatadi. Ichki mantig'i kuchli bo'lgan badiiy asargina kitobxon ruhiga jiddiy ta'dir ko'rsatishga qodir bo'ladi. Masalan, Abdulla Qahhorning 6-sinf adabiyot darsligida berilgan "O'g'ri" hikoyasidagi "o'g'ri"ni olaylik. O'quvchilar asar qahramonlari timsolida, ularning xatti-harakatlari asosida odamni taftish qilishadi, faoliyatiga, tuyg'ulariga tayanib shaxsini baholashadi, munosabat bildirishadi. Shu tariqa asarning ichki mantig'i, haqiqatlari, inson shaxsi o'quvchining o'zi tomonidan kashf qilinadi. Asar va muallif baholanadi. O'quvchida munosabat paydo bo'ladi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar bilan ishlash ijodkorlarning asarlari zamiriga singdirgan yuksak insoniy g'oyalarni o'quvchining ko'ngil mulkiga aylantirish demakdir. O'quvchining inson hayotiga yaqin, qiziqarli savollar bilan doimiy ravishda band bo'lgan aqli o'z ixtiyori bilan kuzatuvlar asosida o'quv materialini o'zlashtiradi. O'qilgan badiiy asarni o'quvchilar bilan birgalikda mufassal tahlil qilish, asar matni asosida ko'plab hayotiy muammolarga javob topish o'quvchida o'z intellektual imkoniyati darajasidagi tanqidiy nazarni shakllantiradi. Bu hol bolani har qanday ishga yuzaki yondashmaslikka, mukammal o'rganmay, qator asoslarni topmay turib fikr aytmasslikka o'rgatadi. Aslida tanqid to'plangan qator ma'lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. Bolani shunday belgilarni qidirishga va ularni tahlil qilishga o'rgatish o'quvchini

jiddiy fikrlashga, ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritishga moyil qiladi. O‘quvchi, ayniqsa, yuqori sinflarda o‘rganilayotgan asardagi biror jihatga qo‘shilmasligi, yoki asarni butunlay yoqtirmasligi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlaridan qo‘rqmaslik kerak. Chunki u bolalarni mustaqil fikrlash va o‘z qarashlarini asoslashga o‘rgatadi.

Tanqidiy fikrlash – bu masalaga turli tomondan yondashib, aniq xulosaga kelishdan oldin barcha ehtimollarni ishlab ko‘rish demakdir. U insonni kengroq fikrlashga, odamlarni tushunadigan bo‘lishga undaydi. Tanqidiy fikrlovchilar hamma narsaga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Tanqidiy fikrlash hatto aniq ko‘rinib turgan voqelikka nisbatan 100 foizlik ishonchga ham shubha bilan qarashdir. Darhaqiqat, kam hollarda bo‘lsa ham, shubha jarayon rivoji uchun xizmat qiladi. Albert Eynshteyn aytganidek, muvaffaqiyat qozonishda hammasi juda oddiy: barcha biror ishni bajarish imkonsiz deb turganida bir jasur odam keladi-da, ularning fikriga shubha bilan qarab, o‘sha ishni uddalaydi. Demak, ta’lim jarayonida o‘quvchiga erkin, tanqidiy fikrlash, mushohada yuritish imkoniyati yaratilishi kerak. O‘quvchi tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi va bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajada ishonchsizlik bilan idrok qiladi hamda qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi. Aynan shu jarayonda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Tanqidiy fikrlash yordamida o‘quvchilar diqqat bilan o‘qish, chuqur mulohazalar yuritish, og‘zaki va yozma nutqini aniq va o‘ylab ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini ham rivojlantiradi. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, mavzu yuzasidan o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar doirasini aniqlashi, so‘ng o‘quvchilarni bu muammoni o‘zlari hal qilishlariga tayyorlashi zarur. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi o‘quvchilarga savollarga qanday javob berishni o‘rgatadi. Ammo savollarni qanday berish kerakligi haqida tushuncha deyarli berilmaydi. Aslida savol berish, ayniqsa, yaxshi savol berish tanqidiy fikrlash uchun juda muhim. O‘quvchi biror masala haqida o‘ylaganda, o‘ziga nima uchun? nega? qanday? degan savollar berishi kerak. Mavjud savol yoki muammo yechimi

yuzasidan xulosaga kelishdan avval shu muammoga oid barcha ma'lumotlarni, omillarni batafsil o'rganishi hamda qiyoslashi, mantiqiy o'ylashi lozim. Shu jarayonlardan o'tgan tafakkurgina aqliy va mantiqiy jihatdan eng to'g'ri (mutlaqo to'g'ri bo'lishi shart emas) xulosaga olib boradi.

Biz o'n bir haftalik o'quv-pedagogik amaliyot davomida o'quvchilarda badiiy asar tahlili, ularda tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi muammolarni aniqlash maqsadida o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik. Quyida so'rovnoma namunasi va uning natijalari keltirildi:

So'rovnoma namunasi

Toshkent (shahar, viloyat) _____-sonli umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (F.I.SH.) _____

1. Tanqidiy fikrlash haqida tushunchaga egamisiz?
 - Qisman egaman
 - Yo'q
2. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda qaysi adabiy turdagi asarlarning imkoniyati kengroq?
 - Epik va dramatik asarlar
 - Barcha turdagi asarlar
3. Uzlaksiz ta'limning qaysi bosqichlarida o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash yuqori bo'ladi?
 - O'rta maxsus va oliy ta'limda
 - Ta'limning barcha bosqichlarida
4. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishda qanday dars shakllari samarali natija beradi, deb o'ylaysiz?
 - Noan'anaviy dars shakllari samarali natija beradi
 - Barcha dars shakllaridan foydalanish mumkin
5. Ta'lim metodlaridan darsning qaysi qismida foydalangan ma'qul?
 - Mavzudan kelib chiqib darsning barcha bosqichlarida
 - Faqat takrorlash darslarida va mustahkamlash qismida
6. Badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish ta'limning, asosan, qaysi bosqichida amalga oshirilsa, samarali natija beradi, deb o'ylaysiz?
 - O'quvchilar yoshi va qobiliyatiga hamda o'tilayotgan mavzuning mohiyatiga ko'ra barcha bosqichlarda
 - Faqat akademik litsey o'quvchilari bilan
7. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga oid metodlarni umumiy o'rta ta'limning nechanchi sinflarida qo'llasa, ta'lim samaradorligi oshadi?
 - O'qituvchining mahoratiga bog'liq
 - Imkon qadar yuqori sinflarda
8. Bir chorak (bir semestr) mobaynida necha marotaba interaktiv metodlardan foydalangansiz?
 - Unchalik ko'p emas
 - Takrorlash darslarini imkon qadar interaktiv metodlardan foydalanib o'taman

So'rovnoma natijalari

<i>Suhbatda qatnashgan o'qituvchilar soni</i>	<i>Savollar</i>	<i>Javoblar</i>	
15	Tanqidiy fikrlash haqida tushunchaga egamisiz?	Qisman egaman (15 nafar o'qituvchining hammasi)	Yo'q (0)
12	O'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda qaysi adabiy turdagi asarlarning imkoniyati kengroq?	Epik va dramatik asarlar (12 nafardan 10 nafari)	Barcha turdagi asarlar (12 nafardan 2 nafari)
15	Uzluksiz ta'limning qaysi bosqichlarida o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash yuqori bo'ladi?	O'rta maxsus va oliy ta'limda (15 nafardan 10 nafari)	Ta'limning barcha bosqichlarida (15 nafardan 5 nafari)
10	O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishda qanday dars shakllari samarali natija beradi, deb o'ylaysiz?	Noan'anaviy dars shakllari samarali natija beradi (10 nafardan 7 nafari)	Barcha dars shakllaridan foydalanish mumkin (10 nafardan 3 nafari)
15	Ta'lim metodlaridan darsning qaysi qismida foydalangan ma'qul?	Mavzudan kelib chiqib darsning barcha bosqichlarida (15nafardan 9 nafari)	Faqat takrorlash darslarida va mustahkamlash qismida (15 nafardan 6 nafari)
15	Badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish ta'limning, asosan, qaysi bosqichida amalga oshirilsa, samarali natija beradi, deb o'ylaysiz?	O'quvchilar yoshi va qobiliyatiga hamda o'tilayotgan mavzuning mohiyatiga ko'ra barcha bosqichlarda (15 nafardan 11 nafari)	Faqat akademik litsey o'quvchilari bilan (15 nafardan 4 nafari)
10	O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga oid metodlarni umumiy o'rta ta'limning nechanchi sinflarida qo'llasa, ta'lim samaradorligi oshadi?	O'qituvchining mahoratiga bog'liq (10 nafardan 8 nafari)	Imkon qadar yuqori sinflarda (10 nafardan 2 nafari)
15	Bir chorak (bir semestr) mobaynida necha marotaba interaktiv metodlardan foydalangansiz?	Unchalik ko'p emas (15 nafardan 10 nafari)	Takrorlash darslarini imkon qadar interaktiv metodlardan foydalanib o'taman (15 nafardan 5 tasi)

Jadvaldagi javoblardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish har qanday sinfda bevosita o‘qituvchi shaxsi bilan bog‘liq. O‘tkazilgan suhbat va so‘rovnoma bizga badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrni shakllantirish metodikasining qanchalik muhimligini tasdiqlab berdi.

II BOB. UZLUKSIZ TA'LIMDA BADIY ASAR QAHRAMONLARINI TANQIDIY BAHOLASHGA O'RGATISH METODIKASI

2.1. O'quvchilarning tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv

Bugungi o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma'ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari, ta'lim beruvchi o'yinlar, muammoli suhbat, kitob bilan mustaqil ishlash, ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, og'zaki so'rov, yozma ishlar, mustaqil nazorat ishlari kabi usullar u yoki bu darajada tushunarli. Lekin bugungi pedagogika, nafaqat, yetuk, bilimli mutaxassis, balki sog'lom ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi shaxs, barkamol inson shakllantirishni talab qilmoqda.

Ta'limning muammoli, suhbat, tadqiqot, evristik metodlari zamirida mustaqil va tanqidiy, mantiqli tafakkur faoliyati mavjud bo'lgani uchun ham ular ta'limning mantiqiy metodlari deyiladi. Adabiy ta'limda ularni qo'llash asosida o'rganilajak asarlarning adabiy-badiiy tahlili yotadi. Darslarda badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish u yoki bu darajada mustaqil fikrlashni talab qiladi. Shuning uchun o'quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ya'ni darsda ham, an'anaviy topshiriqlarni bajarishda ham, uy vazifalarini qilishda ham foydalanish kerak. O'quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

Ma'lumki, har bir o'quvchi o'ziga xos layoqat va iqtidorga ega. Ular tabiatan qiziquvchan va bilim olishga intiluvchan bo'ladilar. O'quvchilar iqtidorini namoyon qilishi uchun o'quv jarayoni o'qituvchi tomonidan samarali tashkil qilinishi kerak. O'quvchilarni o'ylash va muammolarning yechimiga ijodiy yondashishga undash natijasida ular fikrleydilar, mustaqil tarzda xulosa chiqaradilar, ma'lum bir asar qahramonlariga tanqidiy baho berish tajribasiga ega bo'ladilar. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot

instituti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi Onajon Boltayeva o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishni o‘rgatishga yo‘naltirilgan darslarda quyidagi usullardan foydalanish mumkinligini qayd etadi:¹⁵

– **qo‘shaloq bashorat qilish usuli.** Bu usulga ko‘ra o‘qituvchi badiiy asar matnidan tanlab olingan tayanch so‘zlar ro‘yxatini o‘quvchilarga taqdim qiladi. O‘quvchilar juft-juft bo‘lib uni muhokama qiladilar va takliflar kiritadilar. Mazkur so‘zlar yordamida asar syujeti bashorat qilinadi;

– **davra stoli tashkil etish usuli.** Bunda bir o‘quvchi g‘oyani yozib, uni yonidagi o‘quvchiga uzatadi. U ham mazkur g‘oyaga munosabatini yozib, navbatdagi o‘quvchiga beradi. Buni yozma va og‘zaki shakllarda o‘tkazish mumkin;

– **juft-juft bo‘lib badiiy asar ustida o‘ylash va fikr almashish usulida** o‘qituvchi o‘quvchilarga fikrlash uchun mavzularni berib, bu haqda fikr yuritish uchun qisqa vaqt beradi. Bir to‘xtamga kelgan o‘quvchilar juftliklarni tashkil etib, mazkur mavzu haqidagi fikrlarini bir-birlariga bayon qiladilar;

– **muammoni shakllantirish, o‘zaro fikr almashinish usuliga** ko‘ra o‘quvchilar muayyan asar qahramonlari haqidagi shaxsiy fikrlarini navbatma-navbat bir-birlariga ma’lum qiladilar. O‘zaro fikr almashganidan so‘ng ular munozaraga kirishishadi;

– **uch bosqichli intervyu o‘tkazish usuli.** Bu jarayonda o‘quvchilar muayyan asar qahramonlari haqida bir-birlaridan intervyu oladilar. Bunda birinchi o‘quvchini “A”, ikkinchi o‘quvchini “B” deb belgilagan holda “A” “B” dan savollariga javob oladi. Uchinchi o‘quvchi “V” esa intervyuning tayanch nuqtalarini yozib boradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan usullarga tayanib, 8-sinf o‘quvchilari bilan Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan olingan “Qochoq” parchasi asosida quyidagicha juft-juft bo‘lib badiiy asar ustida o‘ylash va fikr almashinish usulida dars tashkil etish mumkin:

Darsning maqsadi:

¹⁵ Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2013. №12. –B.42.

a) **ta'limiy maqsad:** Said Ahmad hayoti va ijodi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarni trilogiya qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish;

b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, jamiyat a'zolariga haqqoniy baho beradigan, Vatanini sevadigan, ulug' sifatlarga ega insonlar qilib tarbiyalash;

c) **rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlash doirasini kengaytirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: matbuot konferensiyasi, guruhlarda va jamoada ishlash.

Darsda qo'llaniladigan usullar: tarqatma materiallar, matnlar.

Darsning borishi:

O'qituvchi Said Ahmadning murakkab hayot yo'li haqida o'quvchilarga hikoya qilib beradi. Uning shaxsiy hayoti murakkab bo'lganligi, 1947-yilda "xalq dushmani" sifatida ayblanib, nohaq qamoqqa olinganligi, bir necha yil qatag'on jabrini tortgani, 1953-yildan so'nggina oqlangani, biroq bu azoblar sevimli yozuvchining ruhini, qaddini buka olmaganligi, uning "Ufq" romani, nafaqat, Said Ahmad ijodida, balki adabiyotimizda ulkan voqea bo'lgan uch qismli trilogiya ekanligi haqida to'xtaladi. Shuningdek, u asarda xalqimizning Ikkinchi jahon urushigacha, urush davri, urushning so'nggi yillardagi qismati qalamga olinganligi, romanning birinchi kitobi "Qirq besh kun", ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida", uchinchi kitobi esa, "Ufq bo'sag'asida" deb atalishi, trilogiyada o'sha yillari xalq boshiga tushgan mashaqqatli kunlar, musibatlar, ularni matonat bilan yengib o'tgan kishilar adib tomonidan zo'r mehr va ilhom bilan tasvirlanganligi haqida ma'ruza qiladi.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni rangli kartochkalar yordamida olimlar va muxbirlar guruhiga ajratadi. Sinfdagi ikkita o'quvchi sharhlovchi sifatida maxsus tayyorlanadi. Mavzu matni o'quvchilarga 3-4 kun oldin beriladi.

"Matbuot konferensiyasi"da muxbirlar rolini bajarayotgan o'quvchilarga olimlar rolidagi o'quvchilar quyidagi savollarni beradilar:

1. Said Ahmad hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Said Ahmad asarlari asosida yaratilgan qanday badiiy filmlarni bilasiz?
3. Tursunboyning erka, xudbin bo‘lib o‘shining sababi nimada, deb o‘ylaysiz?
4. Tursunboyga xos bo‘lgan sifatlar haqida gapiring.
5. O‘g‘lining xatti-harakatlariga Ikromjonning munosabati. Buni siz qanday tushunasiz?
6. Tursunboyning ko‘proq nima qiziqtiradi?
7. Asar qahramonini shunday xatti-harakatlarga undovchi vaziyatlarni qanday baholaysiz?
8. Asar voqealarining qay tarzda rivojlanganligini izohlab bering.
9. Badiiy asar qahramonlari sizda qanday taassurot qoldirdi va siz ulardan qaysi birining o‘rniga o‘zingizni qo‘ya olasiz? Siz Tursunboyning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?
10. Asarda ko‘tarilgan muammo qahramonlar hayotida qanday aks etadi?
11. Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon xarakterlaridagi milliylik nimalarda ko‘rinadi?

Dars jarayonida o‘quvchilar asar qahramonlari ikki xil: bir tomondan unga farzand sifatida joni achisa, ularga tanqidiy baho bersa, ikkinchi tomondan shaxsiyatiga e‘tibor qaratadilar va uni “Xoin! Qochoq! Nomard!”, deya boshlaydilar.

Uyga vazifa. “Menda nafrat uyg‘otgan qahramonning meni taajjublantirgan harakatlari”, kabi mavzularda ma’ruza yoki asar qahramonlaridan biriga tavsifnoma tayyorlab kelish.

O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish orqali quyidagilarga erishamiz:

- samarali bilim olish va axborotlarni qabul qilish;
- o‘rganilayotgan badiiy asar va o‘quv jarayoniga qiziqish uyg‘otish;
- sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlash;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish;

- tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- bahs madaniyatini shakllantiradi;
- ijodiy fikrlash qobiliyati (kreativlik)ni namoyon qiladi;
- ijodkor, yaratuvchan insonni shakllantiradi.

O‘quvchilar badiiy asardagi aks ettirilgan ruhiyat manzarasi, kayfiyat tasviri, tuyg‘ular ifodasi orqali u yoki bu voqelikni sharhlashga harakat qiladi va turli fazilatlarni o‘quvchilar tabiatiga singdirib olgandagina adabiyot darslaridan kutilgan maqsadga erishilgan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday darslar o‘quvchilar tanqidiy fikrlash salohiyatini oshirib, tanqidiy baho berish va nihoyat ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Metodlar dasrning turi, maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Adabiy materialning mazmuni uni yetkazish shakli haqida o‘ylashga majbur qiladi. Keyingi yillarda metodik adabiyotlarda suhbat metodi amaliyotda noto‘g‘ri shakllar kasb etib, o‘quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, degan fikrlar ham uchray boshladi. Ko‘pincha o‘qituvchi suhbat yo‘li bilan mutlaqo yangi yoki talay yangiliklarni o‘zida aks ettirgan o‘quv materialini tushuntirishga harakat qiladi. Bunday suhbatda odatda zukoroq o‘quvchilarning katta bo‘lmagan qismi qatnashadi. Faolligi kamroq bo‘lgan o‘quvchilarning qolgan qismi savol-javoblardan oz narsa oladi, ko‘pincha suhbat mazmunini ilg‘ay olmaydi. O‘qituvchi bunday “bayon qilish”dan keyin yangi materialni mustahkamlashga o‘tadi. Vaholanki, suhbat badiiy asar g‘oyasini aniq va yaqqol ochib beradigan, obrazlarini yorqin chizib ko‘rsatadigan, chuqur kechinmalar uyg‘otadigan bo‘lsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Suhbatga tayanib interfaol usul qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning juft-juft yoki jamoa bo‘lib qatnashishi talab qilinadi. Bunday jamoaviy suhbatlar chog‘ida o‘qilgan kitob haqida o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashadilar, butun asarni va undagi qahramonlarni baholovchi fikrlarini, shuningdek, qahramonlarga va yozuvchi mahoratiga bergan qisqa tavsiflarini bayon qiladilar.

Suhbatlarni bahs-munozara tarzida tashkil etishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Bahs-munozara o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Yoshlar asar qahramonlarining xulqi, xatti-harakatlarining sabablari, maqsadlari haqida bir-biriga nisbatan odob doirasida muloqotga kirishadilar. Bir tomondan, o'z fikrlarini asoslash va himoya qilish payida bo'ladilar, ikkinchi tomondan, o'z qarashlarini e'tirozlarini samimiy tarzda ifodalashga intiladilar. Bunday bahs'munozaralarda o'quvchilar berilib qatnashadilar. Shubhasiz, bunday usulning muvaffaqiyati ularni to'liqlantiradigan, faol fikrlashga undaydigan savollar berilishiga bog'liq.

M.Mirqosimova yozuvchining hayoti va ijodini o'rganishda, asarlarni tahlil qilishda munozara, ijodiy bahslashish usuli foydali ekanligini alohida ta'kidlaydi. Zero, munozara darslarining mazmunli o'tishi uchun har ikki taraf: o'qituvchi va o'quvchilar mavzuga nisbatan o'z mulohazalarini, bahsli fikrlarini to'plagan bo'lishlari, ijodiy tahlil etilayotgan asarlarni mustaqil o'qib o'rgangan bo'lishlari kerak¹⁶.

Asar qahramonlariga haqqoniy baho berish ko'nikmasini egallashlari uchun o'quvchilar muayyan nazariy bilimlarni ham o'zlashtirishlari zarur. Chunki adabiyotshunoslikning asosini badiiy asarlar tashkil qiladi. Adabiyot nazariyasi va tarixiga oid bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslar o'z tabiati va maqsadiga ko'ra badiiy asarlarni o'rganish maqsadida tashkil etilgan darslardan farqlanadi.

Adabiyot darslarida ilmiy hamda adabiy tanqidga oid materiallarni o'rganish maqsadi ham nazarda tutiladi. Chunki adabiy tanqidga oid maqolalar va kitoblarda badiiy asar va uning qahramonlariga nisbatan tanqidiy yondashuv va nuqtayi nazarlar bayon qilinadi. Bunday ma'lumotlar yordamida o'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bilan tanqidiy maqolalar ustida ishlash alohida e'tiborni talab qiladi. Umarali Normatov, Ozod

¹⁶ Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi (Adabiyot o'qituvchilari va talabalar uchun qo'llanma).-T.:RO'MM, 1993.-B.17.

Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Matyoqub Qo'shjonovlarning maqolalaridan adabiyot darslarida foydalanishni o'qituvchilarga tavsiya etish mumkin. Jumladan, M.Qo'shjonovning Oybekning "Navoiy" asari haqida bildirgan tanqidiy fikr-mulohazalari bilan tanishgan o'quvchilar uning qahramonlari haqidagi tasavvurlarini boyitib, tanqidiy yondashuvlarini yangicha nuqtayi nazarda tahlil qila boshlaydilar.

Yozuvchining tarjimai holini o'rganishga mo'ljallangan darslar ham o'quvchilarni asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda muayyan darajada hissa qo'shadi. Bunday darslarda o'qituvchining jonli hikoyasi asardan olingan lavhalar bilan uyg'un tarzda bayon qilinadi. Shu bilan bir qatorda, yozuvchi zamondoshlarining fikrlari, uning asarlariga bergan baholari, qahramonlari faoliyatini yorituvchi illyustratsiyalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyatlari uchun daliliy material sifatida xizmat qiladi.

Umumlashtirish, takrorlash va so'rovlar tashkil etishga bag'ishlangan darslar ham o'quvchilarni asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda muhim didaktik jarayon sifatida xizmat qiladi.

Nutq o'stirish darslari o'quvchilarning asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda himoyalash, bayon etib berish tanqidiy fikrlashda muhimdir.

Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq yo'l yo'q, ammo ma'lum usullar orqali o'quvchida tanqidiy fikrlashni tarbiyalash mumkin. Xususan, adabiyot darslarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi ayrim pedagogik texnologiyalarni keltirib o'tamiz:

Tarozi" texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda yaxshi samara beradi. U tanqidiy tafakkurni, dalillash qobiliyatini, o'z dalillarini og'zaki va yozma shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi. Bunda o'quvchilar o'z nuqtayi nazarini himoya qiladi va boshqalarni ham bunga ishontiradi. Bu texnologiyani o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Asosiy tushunchalar


quyidagilar: Mavzu turli nuqtayi nazarlarning to‘qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ularning birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Argument- bu o‘z nuqtayi nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g‘oya, mulohazadir. Dalillash aniq, mantiqiy asoslangan, faktlar, sharhlar, isbotlar, misollar bilan quvvatlangan bo‘lishi kerak. Kontargument (qarshi dalillash)- bu raqibning dalillarini rad etish bo‘lib, u dalillashga qo‘yiladigan talablarga mos bo‘lishi kerak. To‘g‘ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtayi nazarini zaiflashtirishi va o‘zining himoya chizig‘ini mustahkamlashi lozim.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi. Ushbu texnologiyalarni muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishda qo‘llash yaxshi natija beradi. “Yelpig‘ich” texnologiyasining mohiyati shundaki, unda mavzuning turli qirralari bo‘yicha axborot berish mumkin. Bu usul, shuningdek, o‘quvchilarda ijodkorlik, erkin va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, nutq boyligini oshiradi. Masalan: Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini o‘rganishda “Yelpig‘ich” texnologiyasidan quyidagicha foydalanish mumkin. Topshiriq ikki turda bajariladi.

1-turda Miryoqub obraziga xos yaxshi va salbiy xususiyatlar aniqlanadi.

Yaxshi fazilatlar	Salbiy xususiyatlar
Tadbirkor, bilimli, zakovatli, xushyor, ishbiarmon, yomonlarga misli bir olov...	Ayollarga suyagi yo‘q, boshqalarga naf bermaslik, yolg‘onchilik...

2-turda Miryoqubga xos xususiyatlarni grafik chizmada ko'rsatish talab etiladi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:



Debatlar texnologiyasi – yozma bahslar. Masalan: “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Zaynabning baxtsizligiga uning o‘zi ham aybdormi?” savoli bahs mavzusi sifatida tanlanadi. Rahbar tinglovchilarni mavzuga munosabatiga ko‘ra 2 guruhga ajratadi va ularni o‘quv xonasining ikki tomoniga qator qo‘yilgan stollarga o‘tqizadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishlarini belgilaydi. (Masalan. 1-guruh savolga “Ha” deb javob beruvchilar, 2- guruh esa “Yo‘q”). Shundan so‘ng, rahbar tinglovchilarni juftlaydi, har bir juftda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo‘lishi kerak. Juftlar tartib raqami bilan belgilanadi. Tinglovchilar o‘quv xonasining ikki tomonida o‘tirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh a‘zolariga o‘zlari ma’qullayotgan nuqtayi nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog‘oz varag‘iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh a‘zolari o‘zlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bo‘lgan nuqtayi nazarlarini isbotlashlari mumkin. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga beriladi. Ularga juft bo‘yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun, o‘z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi. Dalillar almashishining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, bunda har bir tinglovchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o‘zining aks dalilini keltirishi

shart. Tinglovchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund yetarlidir. Oxirgi raunda tinglovchilarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so‘ng, yozma ish yig‘ib olinadi. Bahslarga yakun chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savoldir. “Qarshi tomonning eng yaxshi dalili-isbotlari qaysilar bo‘ldi?”. Ushbu texnologiya ham tahliliy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda yaxshi samara beradi.

“Svetafor” texnologiyasi. Nasriy asarlarni o‘rganish jarayonida “Svetafor” texnologiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Bunda o‘qituvchi biror asarni o‘rganish vaqtida asar bo‘yicha tezislar tayyorlaydi. Tezislar o‘quvchilarni mushohadaga chorlaydigan, munozarali bo‘lishi maqsadga muvofiq. Tezislar navbatma-navbat yozuv taxtasiga yoziladi, yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo‘yiladi. O‘quvchilarga o‘ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So‘ng tezisni ma‘qullagan har bir o‘quvchi yashil kartochkani ko‘taradi; ma‘qullamagan o‘quvchi qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishga qiynalayotgan o‘quvchilar sariq kartochkani yuqoriga ko‘taradi. Agar ishtirokchilar fikri, asosan, bir-biriga mos keladigan bo‘lsa, o‘qituvchi navbatdagi tezisga o‘tadi. Agar javoblar turlicha bo‘lsa, ishtirokchilardan o‘z qarorlarini asoslab berish so‘raladi.

Ushbu texnologiya barcha o‘quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi, hech kim oddiygina tomoshabin bo‘lib qolmaydi. Ishtirokchilarning ko‘pchiligida mashq boshlanganidan keyin nuqtayi nazarlardagi tafovutlar sabablarini bilish va o‘z fikrini asoslashga bo‘lgan kuchli qiziqish paydo bo‘ladi. Mazkur metod mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirish bilan birga o‘quvchilarning nutqini, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Agar tezislarining ko‘pchiligi bo‘yicha o‘quvchilarning fikri bir-biriga mos kelsa, mashqqa bo‘lgan qiziqish yo‘qoladi. Bu texnologiyadan foydalanish uchun tezislarini puxtalik bilan tayyorlash talab qilinadi.

Bundan tashqari badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholash ko‘nikmasini shakllantirishda **“T chizmasi” metodidan** ham samarali foydalanish mumkin.

Bunda asar qahramoni tanlanadi va birinchi ustunga shu qahramonga xos ijobiy xislatlar, ikkinchi ustunga esa shu qahramon xarakterida uchraydigan salbiy xususiyatlarni yozish vazifasi beriladi. Bu jarayon orqali o'quvchi asardagi ijobiy qahramonlarning oz bo'lsa-da salbiy xususiyatlarini, salbiy qahramonlarning esa ijobiy tomonlarini ko'rishga harakat qiladi.

O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda yozma ishning turli shakllaridan foydalanish ham kutilgan natijaga erishish uchun xizmat qiladi. Yozishni tanqidiy fikrlashning muhim vositalaridan deyish mumkin. Ma'lumki, yozma ishda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin va bunda o'quvchining tanqidiy fikrlari yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki o'quvchi yozish jarayonida mustaqil fikrlaydi, o'zidagi bor bilimlardan foydalanadi va o'qiguvchi uchun o'z fikrlarini dalillashga harakat qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini qisqaroq shaklda yozma bayon qilishlarini topshirishi, yoki uyda mustaqil insho yozib kelish vazifalarini berishi mumkin.

Biz quyida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishga xizmat qiladigan adabiyot darslarining turli tiplari va ko'rinishlarini tahlil qilishga intildik. Darsning alohida usullari maktab amaliyotida namoyon bo'ladi. Bunday darslar o'quvchilarning amaliy faoliyatida alohida o'rin egallaydi. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatadigan darslar o'z maqsadiga ko'ra o'quvchilarning tanqidiy hamda estetik tafakkurlari, badiiy his-tuyg'ulari, badiiy asarni idrok etish ko'nikmalari, obrazli tafakkurni o'stirish, ular ongini badiiy obrazlar yordamida boyitish, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ekologik tarbiyalash, badiiy adabiyotga bevosita qiziqish uyg'otish, badiiy asar va san'at namunalari bilan muntazam muloqot qilishga ehtiyoj hosil qilish, badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ularga o'z munosabatini bildirish, tanqidiy baho bera olish, qiziqarli badiiy asarlarni mustaqil izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Asarni badiiy idrok etishga yo'naltirilgan darslar quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- o‘quvchilarda badiiy asar qahramonlari xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish ko‘nimasini shakllantirish;
- o‘quvchilarning badiiy asar qahramonlari bilan bevosita muloqot qilishlarini ta‘minlash;
- asar qahramonlari haqida yaxlit, chuqur tasavvur hosil qilish;
- asar qahramonlarining o‘quvchilarning kechinmalari va his-tuyg‘ulariga ta‘sir ko‘rsatadigan jihatlarini anglash;
- o‘quvchilarda asarni badiiy idrok qilish madaniyatini rivojlantirish;
- badiiy asarni tinglash va o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarning xulq-atvorlariga ta‘sir ko‘rsatadigan axloqiy-estetik kechinmalarini tarbiyalash kabilar.

Biz quyida mazkur tipdagi darslar haqida batafsil fikr yuritamiz:

Umumta‘lim maktablari adabiy ta‘limda nasriy asarlarni o‘rganishning o‘z maqsad va vazifalari mavjud. Agar umumta‘lim maktablari o‘quv dasturiga nazar tashlasak, 5-7-sinflarda badiiy jihatdan sara asarlarni o‘qib o‘rganish, qator nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, asarlarni yod olish, mustaqil o‘qib o‘rganish asosida ijodiy yozma ishlarni bajarish kabi o‘quv maqsadlari belgilanganini ko‘rish mumkin¹⁷.

9-sinfda “Kecha va kunduz” romanini ana shu maqsadlardan kelib chiqib o‘rganishdan avval kirish mashg‘uloti tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday kirish mashg‘ulotida o‘quv dasturida belgilangan vazifalar qisman hal etiladi: Cho‘lponning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi, XX asr millat ma‘naviy hayotida “Kecha va kunduz” romanining o‘rni; romanning ijodiy tarixi va taqdiri kabi masalalar 15-20 minutlik kirish mashg‘ulotida yoritiladi. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi adabiyotshunos olimlarning Cho‘lpon ijodi haqidagi risola va maqolalaridan ayrim namunalarni o‘qib bersa, dars yanada mazmunli o‘tadi. Xullas, dars jihozlari sifatida adibning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan adabiy albom, matbuot materiallari, adabiyotshunos olimlar asarlari tanlanadi. Ular sinfda yaxshigina ko‘rgazma holidagi qo‘yilib, o‘quvchilarga taqdim etiladi.

¹⁷ Mirqosimova M., Usmonova O. Badiiy asar tahlili vositasida o‘quvchilar ma‘naviyatini yuksaltirish usullari. –T.: 2012. -B.88.

Aynan “Kecha va kunduz” romani kabi tarixiy asarlarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyiliga, albatta, amal qilish shart. Ma’lumki, 9-sinf o‘quvchilari quyi sinflarda ham (7-sinfda) Cho‘lpon ijodi bilan, xususan, “Binafsha”, “Ko‘ngil”, “Xalq”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Go‘zal” kabi she’rlari bilan tanishgan. Endi yuqori sinfda Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani o‘rganiladi. Cho‘lponning qator lirik she’rlari va hikoyalarda (“Novvoy qiz”, “Qor qo‘ynidagi lola”) o‘zbek xotin-qizlarining o‘tmishdagi taqdiri tasvirlangan. U mavzuni davom ettirish uchun ikki qismdan iborat “Kecha va kunduz” romanini yozishga kirishgan edi. Asarda tasvirlangan voqea Birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda Farg‘ona vodiysida bo‘lib o‘tadi. O‘zbek xalqining – bir tomondan mahalliy hokimlar, nira tomondan mustamlakachilar tomonidan ezilgan davri asarda o‘z aksini topgan. Yurtni zulmdan, jaholatdan qutqaruvchi kuch hali tug‘ilgani yo‘q edi. O‘qituvchi shu o‘rinda Cho‘lponning hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar bersa, romanga xos epik tafakkur mohiyatini o‘quvchilar tushunib olishlariga ko‘maklashgan bo‘ladi.

Cho‘lpon asarda o‘zbek xalqining mustamlakachilik davridagi azobli hayotini qalamga olib, millat fojiasining sabablarini badiiy tadqiq etishga intilgan. Xo‘sh, bu fojianing bosh sabablari romanda qanday talqin qilingan?

O‘quvchilarning mustaqil fikrlari tinglangach, roman voqealari o‘zbek xalqining zulm ostida ezilgan davrini qamrab olganligi; mahalliy amaldorlar mustamlakachilar bilan qo‘shilishib, xalqning taraqqiyoti haqida emas, balki o‘zlarining halovatlari haqidagina jon kuydirganliklari, ayni sharoitdagi xalq hayoti asarning bosh qahramoni Zebi va uning ota-onasi fojialari orqali butun bir millatning fojiasi sifatida tasvirlanganligi obrazlar tahlili orqali yoritilishi kerak.¹⁸ Asar personajlari Zebi, Qurvon bibi, Razzoq so‘fi, Akbarali mingboshi, Miryoqub, Noyib To‘ra, Xadichaxon, Poshshaxon, Sultonxon, Maryamxonlarning har biri o‘z qiyofasiga, milliy xarakter xususiyatlariga ega timsollardir.

O‘qituvchi o‘quvchilardan asar voqealarining ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugashidagi ramziy ma’noni so‘raydi. Barcha fikr-mulohazalarni

¹⁸ Mirqosimova M., Usmonova O. Badiiy asar tahlili vositasida o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish usullari. –T.: 2012. -B.101.

o‘qituvchi boshqaradi. Darsning keying bosqichida o‘quvchilarga asar matnidan olingan portret va joy tasvirlaridan namunalar tarqatiladi.

Qo‘lingizdagi asar matnidan olingan portret tasviri orqali yozuvchi Cho‘lpon uslubi va mahoratiga oid qanday mulohaza bildira olasiz? Portret tasvirini yaratishda Cho‘lpon qahramon yuzini, kiyimlarini qanday ranglardan foydalanib tasvirlagan?

Fikr-mulohazalar manzarasi galdagi savollar orqali davom ettiriladi: endi boshqa o‘quvchilarga roman qahramonlari o‘rtasidagi dialoglardan misollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Qahramonlar o‘rtasidagi dialoglar vositasida o‘quvchilar har bir personajning insoniy qiyofasini, ichki olamini sharhlab yoritishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga asardan Zebi portretini gavdalantiruvchi lavhalarni topib kelishni topshirishi ham mumkin. Masalan, Razzoq so‘fi tilidan “Ojizimiz (qizimiz) ham to‘ppi tikishga “farang” bo‘lib chiqdi”¹⁹, Enaxonning kelinbibisi tilidan “Muncha ham ovozi chiroylik bu qizning!...Ashula aytsa, qulog‘ing mast bo‘ladi odam... Nafasi muncha issiq, muncha mazalik! Muncha ta’sirlik!”²⁰, O‘lmas tilidan “Sovchining ko‘pligidan ostonaso yoyilib ketgan deydilar...Bilmadik, qaysi toleyi balandga nasib bo‘lar ekan!”²¹, Miryoqub tilidan “O‘zi o‘n besh-o‘n oltida ekan... Juda yetilgan vaqti... juda yaxshi, bulbul singari ashula qilar ekan. Ovozi Dovud payg‘ambarniki singari deydilar...”²². Ushbu parchalar tahlili orqali o‘quvchilar Zebi qiyofasi haqida mustaqil fikr yuritishlari mumkin. So‘ng mingboshiga so‘ralayotganini eshitgan Zebining holati tasvirlangan parcha o‘qib eshittiriladi va o‘quvchilardan mazkur parchani tahlil qilish so‘raladi: **“Endi uning yuragi notob bo‘lgan kabi juda sust urmoqda, rangi oqargan, butun vujudi latta kabi bo‘shashgan edi... Dovolga suyanganicha, behold o‘tirib qoldi... Shu tobda u ojiz bir maxluq, qo‘li bog‘liq bir qul, hech bir ishonadigan kishisi yo‘q, yolg‘iz va g‘arib...”**²³. Cho‘lpon bu satrlarda Zebining ojizligini san‘atkorona tasvirlab bergan. Shu

¹⁹ Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. II jild. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1993. -B.13.

²⁰ O‘sha manba, -B.31.

²¹ O‘sha manba, -B.34.

²² O‘sha manba, -B.34.

²³ O‘sha manba, -B.72-73.

o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilardan “Siz Zebining o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilgan bo‘lar edingiz?” degan savol bilan murojaat qilib, ularning javobini tinglashi o‘rinli bo‘ladi. Javoblarni xulasalab, Zebining shu ahvolga tushishiga o‘zi ham aybdor ekanini, har bir inson baxti uchun kurashishi zarurligi ta’kidlanadi.

Bu jarayonda o‘quvchining asosiy ish quroli darslikdagi asar matni hisoblanadi. “Matn ustida ishlash – uning badiiy, mantiqiy, estetik mazmunini anglash va tahlil qila olish, asosiy yoki ikkinchi darajali fikrlar orasidagi aloqa yoki farqni ajrata bilish, shu bilan birga o‘z qarashlariga ega bo‘lish demakdir”²⁴. Shu tariqa amalga oshiriladigan tahlil natijasida o‘quvchilarda bir-birlarining fikrini quvvatlash yoki rad etish, bir-birini tinglash, o‘z qarashlariga o‘zgalarni ishontira olish, bir so‘z bilan aytganda, mustaqil va tanqidiy tafakkur, uning negizida esa ijodiy fikrlash qobiliyati shakllantiriladi.

²⁴ Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari.-T.:O‘zinkomsentr, 2003.-B.95.

2.2. Qahramonlarni tanqidiy baholashda savol va topshiriqlarning o‘rni

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishda savol va topshiriqlar katta ahamiyatga ega. Savol berish, ayniqsa, yaxshi savol berish–tanqidiy fikrlash uchun juda muhim. O‘qituvchi badiiy asar tahlilida muammoni aniqlaydi va bu muammoning sabablarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘rtaga tashlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib olib borilsa ham yaxshi samara beradi. O‘quvchilar o‘rtaga qo‘yilgan masala bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini ishlab chiqadilar. To‘g‘ri tuzilgan savollar javoblarda turlichalikni yuzaga keltiradi va sinfda munozarali muhit paydo bo‘ladi. O‘quvchilar asar qahramonlarini tanqidiy baholash barobarida o‘z-o‘ziga ishonchni ham rivojlantirib boradi. Har bir o‘quvchi, kitobxon asarni o‘zicha o‘qiydi, o‘zicha tushunadi, o‘zicha his etadi va o‘zicha xulosa chiqaradi. O‘quvchilar o‘rtasida bir asar yuzasidan o‘zaro o‘xshash fikrlar bo‘lishi mumkin bo‘lgani kabi mutlaqo bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar bo‘lishi ham mumkin. Bu holatda o‘qituvchi qarama-qarshi fikrlarni ham hurmat bilan eshitish ko‘nikmasini rivojlantirib borishi kerak. Shuningdek, bu jarayonda o‘quvchilarning o‘z fikrlarini o‘z so‘zlari bilan og‘zaki bayon qilish ko‘nikmalari ham shakllanib boradi. O‘quvchilar bahslashuvda, muhokama jarayonida boshqalar bilan fikr almashilganda o‘z qarashlarini aniqlashtiradi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juftlikda yoki katta va kichik guruhlarda ishlashning turli yo‘llaridan foydalanish, muammoli darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Badiiy asar qahramonlarini o‘rganish, ularni tahlil qilish davomida o‘quvchilarning har bir obrazga nisbatan munosabati, uning xatti-harakatlarini baholovchi hukm – xulosasi yuzaga keladi. O‘quvchi o‘zining mustaqil qarashlarini bayon etishga, fikrlarini asoslashga o‘rganadi, murakkab hayotiy masalalarni hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘lib boradi. Adabiy qahramonlar tahlili o‘quvchilarda hodisalarni chuqur tahlil etish, baho berish, xolis va tanqidiy munosabatning qaror topishiga xizmat qiladi.

Masalan, 8-sinfda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganish uchun o‘quv rejasida 2 soat belgilangan. Ajratilgan vaqtning birinchi soatida

romandan parchani to'la holda o'qib, mazmunini o'zlashtirishga, asar haqida umumiy ma'lumot berishga erishishni rejalashtirish mumkin. Keyingi soatda esa o'quvchilar e'tiborini yozuvchi mahorati, uning o'ziga xos uslubi, romandan ko'zlangan maqsad, qahramonlar tahlili va asarning estetik va badiiy til xususiyatlariga qaratish mumkin.

- ❖ Zebining taqdiriga uning o'zi aybdormi?
- ❖ Zebining romanga bosh qahramon qilib tayinlanishi sababini qanday izohlash mumkin?
- ❖ Zebi obrazida o'zbek xalqiga xos qaysi xislatlar mujassamlashgan?
- ❖ Zebining boshiga nima sababdan balo toshlari otildi?
- ❖ Zebining fojiasi nimada?
- ❖ Cho'lpon Zebi obrazi orqali qanday badiiy umumlashmani ilgari surgan?
- ❖ Akbarali mingboshining o'limi podsho hukumati uchun ahamiyatlimi?
- ❖ Poshshaxonning qotillikka qo'l urishi asarda yetarlicha dalillanganmi?
- ❖ Sud jarayonining shoshqaloqlik va e'tiborsizlik bilan o'tkazilishini qanday izohlaysiz?
- ❖ Domla – imomning xarakterini va harakatlarini qanday izohlaysiz?
- ❖ Razzoq so'fining "e'tiqodi" va otalik tuyg'usi haqida nima deya olasiz?
- ❖ Asardagi Miryoqub qanday obraz?
- ❖ Cho'lponning ijodiy mahorati qaysi o'rinlarda yaqqolroq aks etgan?
- ❖ Zebi va A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Kumush obrazlarida umumiy jihatlar bormi?

Bu kabi savollar asar mohiyatini ochishga va o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, asardagi qotillikka qo'l urayotgan Poshshaxonning kechinmalari, Sultonxonning pinhona qing'ir ishlari-yu buning sabablari, hukumat qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan Akbarali mingboshining holati, o'zini butunlay "muhitning erki"ga topshirgan sodda o'zbek qizi Zebining his-tuyg'ulari, sud jarayonida tilmoch, prokuror va sudyaning xatti-harakatlari, Razzoq so'fining

“e’tiqodi” singandan keyingi holatiga o‘quvchilar diqqatini tortish muhim. Chunki qahramonlar ruhiyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni, kechinmalarni o‘quvchilar qalban his etadi. Zebining suddagi holati, ro‘y bergan hodisani mutlaqo tushunib yetmagani, o‘zidan nima so‘rashayotganini, nima talab qilishayotganini anglamaganligi, sudning hukmini, taqdiri qanday hal bo‘lishini emas, balki uyimni topa olarmikanman deb o‘ylashlari tasvirida Cho‘lponning badiiy ifoda qudrati bor ko‘lami bilan namoyon bo‘lgan. Xususan, asar davomida ojiz va ayanchli kimsaga aylanib qolgan Razzoq so‘fining xarakteri va taqdiriga alohida to‘xtalish lozim. Shu o‘rinda Razzoq so‘fini “ojiz” deb atash to‘g‘rimi? (O‘quvchilar fikrlari tinglanadi). Bunda o‘qituvchi tomonidan darsda erkin fikrlash uchun ma‘lum bir muhit yuzaga keltirilgan bo‘lishi lozim. Javoblar eshitiladi, fikrlardagi qarama-qarshiliklar taqqoslanadi, o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan xulosa chiqariladi.

Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g‘oyalarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan hikoyalarni o‘z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Shuningdek, tahlil jarayonida topshiriqlar bilan ishlash ham yaxshi samara beradi.

Dars o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatishning asosiy shakli hisoblanadi. Bunday darslar adabiyotshunoslik, pedagogik-psixologik, metodik, tashkiliy, estetik gigiyenik, intellektual yo‘nalishlarga ega. Darslarni loyihalashda o‘qituvchi uning yo‘nalishi va turlariga tayanishi lozim. Zamonaviy metodikada adabiyot darslarining bir qator turlari va tiplari mavjud. Metodik tasniflarda adabiyot ta‘limining mazmuni, o‘qitish metodikasi, mavzular va badiiy asarlarni o‘rganish bosqichlari inobatga olinadi. Adabiyot darslariga bugungi kun nuqtayi nazaridan yondashish o‘quvchidan inovatsion yondashuvni talab qiladi. Innovatsion ta‘lim jarayoni o‘qituvchining ijodiy qobiliyati va fantaziyasini namoyon qiladi. Lekin bunday darslarni muayyan tizimga solish, ta‘lim maqsadlariga muvofiqlashtirish talab etilmoqda. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatlari bilan metodik instrumentlari orasida aniq aloqadorlikni ta‘minlash lozim. Darsning tarkibi o‘quv jarayoni mazmuniga

muvofiq kelishi shart. Ba'zi hollarda o'quvchilarning dasrga bo'lgan qiziqishlari pasayganligi kuzatiladi. O'quvchilarning bilish faoliyatidan uzoqlashishlarini mutaxassislar va o'qituvchilar turli usullar yordamida bartaraf etishga intilmoqdalar. Buning uchun ular noan'anaviy darslarni loyihalashtirish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etishga harakat qilmoqdalar. Bunday darslarni loyihalashtirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – o'quvchilarning qiziqishlarini ko'proq ta'lim jarayoniga jalb etishdan iborat.

Bugungi kunga kelib pedagogik amaliyotda noan'anaviy darslarning ko'plab turlari mavjud. Jumladan, matbuot anjumanlari, konferensiya darslari, musobaqa darslari, teatrlashtirilgan darslar, guruhli ish usuliga asoslangan darslar, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda bilim olishga yo'naltirilgan darslar, ijodkorlik darslari, maslahat darslari, auksion darslar, tanlov darslari, umumlashtiruvchi darslar, fantaziya darslari, ma'ruza darslari, o'yin darslari, integrallashgan darslar, davra bo'lib mashq qilish darslari, fanlararo aloqadorlikka asoslangan darslar, sayohat darslari kabi.

Noan'anaviy darslar o'zining muayyan maqsadiga ega bo'lib, bu maqsadga erishish uning asosiy qismini tashkil etadi. O'zining muayyan maqsadiga ega bo'lgan noan'anaviy darslarning mazmuni va tarkibi xuddi mana shu yetakchi maqsaddan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'limning noan'anaviy shakllari o'quvchilarni izlanish va darsning turli-tuman shakllarini loyihalashtirishga undaydi. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish maqsadida turli tipdagi darslarni tayyorlashda bir qator murakkabliklarning mavjudligi tajriba-sinov ishlari jarayonida ayon bo'ldi.

O'quvchilarning asar qahramonlari atrofida muhokamani to'g'ri amalga oshirishlari, ularni qahramonlarning xatti-harakatlari ustida o'ylashga undaydi hamda insonparvarlikka asoslangan fuqarolik va hayotiy mavqeni egallashlariga ko'maklashadi. Bunday darslarning o'qituvchi tomonidan to'g'ri boshqarilishi natijasida o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarash va xulq-atvor tajribasi tarkib topadi. Adabiyot o'qituvchisi pedagogik faoliyatining o'ziga xos texnologiyalari mavjud. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga

o'rgatishning ham o'ziga xos texnologiyalari mavjud. Bu mazkur maqsadga yo'naltirilgan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishdir. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish jarayoni samarali kechishi uchun quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. Darslarning mavzusi, maqsadi, turi va tarkibini aniq ko'rsatish.
2. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishga xizmat qiladigan darslarning boshqa darslar orasida tutgan o'rnini to'g'ri belgilagan holda uni oldingi va keying darslar bilan bog'lash.
3. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatadigan o'quv materiallari mazmunini tanlash.
4. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishga xizmat qiladigan samarali usullar va metodlarni tanlash va faoliyatning turli-tuman ko'rinishlari bilan qurollanish.
5. O'quvchilarning badiiy asar qahramonlariga tanqidiy bera olish ko'nikmalarini nazorat qilish shakllarini aniqlash.
6. O'quvchilarning tanqidiy baholash tafakkurlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarning maromi va mazkur jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatlarini amalga oshirish yo'llarini ko'rsatish.
7. O'quvchilarning badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishning demokratik uslublarini tanlash va mazkur jarayonda o'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati uchun qulay muhitni vujudga keltirish kabilar.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday o'qitish texnologiyasini tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyalari kerak bo'ladi. Bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq. Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish ham zarur. Bu jarayonda o'qituvchi

o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Ta'lim jarayonida texnologik xaritalarning o'рни ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagoglik kasbiga va o'zi tanlagan sohasiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari adabiy ta'limida epik asarlarni o'rganishning umumta'lim maktablari ta'limidan maqsad va vazifalariga ko'ra farqli jihatlari mavjud. Agar umumta'lim maktablari o'quv dasturiga nazar tashlasak, badiiy jihatdan sara asarlarni o'qib o'rganish, qator nazariy bilimlarni o'zlashtirish, asarlardan yod olish, mustaqil o'qib-o'rganish asosida ijodiy yozma ishlarni bajarish kabi qator talab va vazifalar belgilanganligini ko'ramiz. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari adabiy ta'limida quyi bosqichlarida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, tarkib toptirilgan amaliy ko'nikma va malakalarga tayanib badiiy asarlarni o'qib-o'rganish; janr va uslub xususiyatlarini adabiy tahlilga bog'lab aniqlash; estetik tamoyillarga tayanib badiiy asarlarni tahlil qilish; asarning sujeti va kompozitsiyasi haqida tushuncha hosil qilish; epizodlar, o'ziga xos tasvirlar va qahramonlar obrazi ustida ishlash,

asarning badiiy tafakkur tarzini, undagi muallif nuqtayi nazarini mushohada qilish orqali tushunish, asarning badiiy xususiyatlariga baho berish orqali ijodkor mahorati haqida xulosa chiqarishga erishish-uzluksiz ta'limning mazkur bo'g'ida amalga oshiriladi²⁵. Demak, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari adabiy ta'limida badiiy asarlarning o'ziga xos syujeti va kompozitsiyasini, tasvir usulini, asar qahramonlari qiyofasini o'rganish orqali muallif nuqtayi nazarini mushohada qilishga yo'llash; epik asarlarning badiiy tafakkur tarzini tahlil qilish va asarga estetik baho berish me'yorlarini o'quvchilarning o'zlashtirib olishlariga erishish-asosiy ta'limiy maqsadni tashkil etadi.

Badiiy asardagi har bir qahramonning xatti-harakati, har bir so'zi, holati orqali anglashiladigan mazmuni chuqur tushunishga yo'llaydi. Holatlar, kechinmalar, harakatlarning haqiqiy va tabiiy tarzidagi tasviri kitobxonda ham tabiiy tuyg'ularni hosil qiladi yoki tabiiy ravishda g'azab-nafrat hissini qo'zg'ab, ezgulikni ulug'lashga chorlaydi. Masalan, akademik litseylarning III bosqichida o'rganish uchun berilgan Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasiga e'tibor qaratilsa, adib bor mahoratini, mavjud imkoniyatlarni qahramon dunyosidagi iztirobli kechinmalarni tabiiyligicha tasvirlashga yo'naltirgan. Til imkoniyatlarining ma'lum qismi o'sha iztiroblar iskanjasini inson qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantirishga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa bir qismi uning ruhiy holatini tasvirlashga, kechinmalar, tuyg'ular ruhini to'laligicha ifoda etishga qaratilgan. Ammo ular bir butun qahramon timsolida aks etgan mazmunning mantiqiga monand uzviylikni, yaxlitlikni hosil qilib, fikrlar, tuyg'ular oqimiga mos ohanglar yig'indisini hosil etgan. Bosh qahramon Saodat aya dunyosidagi iztiroblar chuqurlashgan chog'da kechinmalardagi murakkablikni, hislar quyunini ifoda qiladi. Farzandlari taqdiridan kuygan Ona kechinmalari va asar mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi sadoqatli jonivor – Qorako'z Majnunning tasviri kitobxonga ta'sir ko'rsatadi.

²⁵ Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: Fan, 2006. -B.57.

Hamma dardga chidab kelayotgan Onaning yakka-yu yagona o'g'lining bo'ynida xoch tasviri tushirilgan bo'yintumorni ko'rgandagi ahvoli, alami, iztirobi tasviriga o'quvchilar diqqatini tortish muhim, chunki qahramon ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, kechinmalarni o'quvchilar o'z qalbi orqali his etadi. Yozuvchi Ona vujudini o'rtayotgan his-tuyg'ular, ziddiyatli kechinmalar shu qadar og'ir va murakkab ekanligini, ular betinim charx urib, to'qnashib, Ona vujudini olov misol kuydirib o'rtayotganligini, binobarin, ona sifatida qanday qilib bo'lmasin, farzandiga to'g'ri yo'l ko'rsatishi lozimligini anglab turganligini ifoda etadi. Asarni sinchiklab o'qisak, yana bir muhim nuqta: ongsiz mavjudot – Qorako'z Majnunning o'z bekasi Saodat ayaga sadoqati timsolida insoniyatga xos qusurlar ayovsiz fosh etiladi.

Hikoya voqeasi juda murakkab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o'n yillardan beri harbiyga ketib, o'sha tomonlarda uylanib, bola-chaqali bo'lgan o'g'li Bo'rixonni kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi. Saodat aya tabiatida o'zbekning chin musulima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o'ylashdek mulohazakorlik mujassam. Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako'z bilan qizining uyiga qarab yo'lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo'l bo'yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, "bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik" qilishlarini, yo'lda uchragan mushuklarni "tiraqaylatib quvishi", "daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab" akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirleydi. Saodat aya uyga qaytsa, Bo'rixon kelibdi. Bu yangilik ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarini ushaltirishi lozim edi. Biroq voqealar o'zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi...Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois "notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillaydi". Xursandchilikdagi ona avval bunga e'tibor bermaydi. Sekin-asta o'g'li Bo'rixonning islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani ma'lum bo'ladi. Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli soviydi, ketar mahali undan yuz o'giradi. Hikoyada Saodat ayaning go'zal

yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi bayon qilinadi.

**“Qorako‘z Majnun” hikoyasi personajlarini o‘rganishga oid jadval
namunasi**

Saodat ayaga xos sifatlar tasvirlangan o‘rinlar	Bo‘rixon xarakteriga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Qorako‘z Majnun sifatleri tasvirlangan misollar	Muallif nutqidan misollar

Asar tahlili davomida o‘quvchilar bir necha guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh-“E’tiqod” guruhiga Bo‘riboyning qilmishining asl negizlari va Ona iztiroblarining sabablarini izohlash topshirig‘i beriladi.

Ikkinchi guruh-“Sadoqat” guruhiga Qorako‘z Majnun tasviri va asarda uning zimmasiga yuklatilgan vazifa xususida mulohaza yuritish topshiriladi.

Uchinchi guruh-“Kitobxon” guruhiga Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasining 8-sinfda berilgan “Qochoq” parchasini yodga olish hamda undagi Ona bilan “Qorako‘z majnun”dagi Ona timsollarini qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlarini yoritish vazifasi beriladi.

Fikrlar tinglanadi, qo‘llab-quvvatlanadi va dars yakunida fikrlar umumlashtiriladi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi ham maqsadga muvofiq:

1. Hikoya nima uchun “Qorako‘z majnun” deb nomlangan?
2. Nima uchun Saodat aya o‘z namozlarinidan o‘g‘lini tilga olmay qo‘yadi?
3. Hikoyadagi Bo‘rixon obraziga tavsif bering.
4. Bo‘rixon nima uchun o‘zbekka o‘xshamay qolgan? Uning e’tiqodida qanday bo‘shliqlar bor deb o‘ylaysiz?

5. Saodat ayaning Bo‘rixonning bolalikdagi kiyimlarini olovga tashlashida qanday ma’no bor?

6. Hikoyadagi “...Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi” degan gapga e’tibor bering. Saodat ayaning “ichidagi muz” nima edi?

7. Hikoyadagi ona obrazini boshqa asarlardagi ona obrazi bilan solishtiring.

8. Itning o‘limiga kim aybdor?

9. Hayvonot olamiga doir qanday g‘aroyib voqealar sizni hayratga solgan?

10. Inson va hayvonlarning tabiati haqida gapiring.

Shunday qilib o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqazo etadi. Chunki, o‘quvchining badiiyatni his qilish holati uning ruhiyati bilan bog‘lansa, badiiy asarni o‘qib o‘rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma’naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta’lim maqsadiga ko‘ra rivojlanishi didaktika bilan bog‘lanadi; o‘quvchining adabiy tahlil talablarini o‘rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o‘zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga mos tarzda bu bilimlarga tayanib amaliy ish yuritishi metodika bilan bog‘lanadi.

III bob. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Ta'lim muassasalarida tanqidiy baholashni o'rganishga oid tajriba-sinov materiallari

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimi o'rgatish usullarining boy tajribasiga ega. Ta'limda usullar to'g'ri tanlanar ekan, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'rgatish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, zamonlar suronidan salomat o'tib kelayotgan barkamol tilimizning betakror obidasidir. Asar turkiy so'z imkonlarining zarif zuhuri sifatida e'zozli, e'tiborli, adibning milliy istiqlol tushunchasiga chiroq tutishi bilan esa g'oyat ardoqlidir. Garchi millat haqida uning erki haqida qayg'urgan jismu jonida shu dard shu o'y iztirobini tashigan matonatli mardlar shonli tariximizda behisob bo'lsa-da asrimiz tongining yorug' yulduzi Cho'lponning o'rni o'zgachadir.

Cho'lponning nazmiy va nasriy merosini ko'zdan kechirar ekanmiz, asarlar zamiridagi shiddatli sog'inishlarni sezamiz. Adib shavkatli tarix yaratgan otalarimizning ustun vasflarini sog'inadi, hurriyat bayrog'ini yulduzlarga tikmoqni ko'zlagan asotiriy qahramonini sog'inadi, o'zi bilan suhbat qurayotgan kishiga xuddi Miryoqub jadid musohibining ko'zlariga tikilgani kabi "Men izlagan pir shu bo'lsa-ya?" degan o'y bilan ilhaq boqadi. Asarni diqqat bilan o'qiganimizda Cho'lponning madaniyat, tarix va din haqidagi fikrlarini o'tmish va kelajak xususidagi tushunchalarni payqashimiz, sharq va g'arb madaniyati deya atalmish ikki ayri dunyoning o'zaro muvofiq kelmaydigan shartlari ostida yashash tufayli tug'ilishi muqarrar muammolar qarshisidagi Cho'lponning yechimlarini ilg'ashimiz mumkin. Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asari abadiy ziddiyat holida yashovchi ikki qutb: qullik va hurlik haqidadir. Yanada to'g'rirog'I, bu ikki qutb orasida arosatda yashashga ko'nikkan, mute millatning

ayanchli hayoti, fojiali qismati haqida. U favqulodda bir ichki mushohada bilan millatni so‘rog‘laydi, najotni daraklaydi. Uning taftish diapozonida bir iqlim bir muhit bir ohangni baham ko‘rayotgan millatning butun tabaqalari aks etadi. Hech kim so‘roqdan qochib qutulmaydi. Shu tariqa inqirozning sabablari, sababchilari izlanadi. Xulosalar esa badiiy chizgilarda balog‘at va fasohat-la zuhur topadi.

Cho‘lpon hayoti va ijodi umumta‘lim maktablarining 7-9-sinflarida hamda akademik litseylarning III bosqichida o‘rganiladi. Biz quyida 9-sinfda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda o‘quvchilarda badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatishga qaratilgan dars ishlanmasidan namuna keltiramiz.

Sinf : 9-sinf

Mavzu: “Kecha va kunduz” romani

Darsning maqsadi :

- a) **ta‘limiy:** Romanda ilgari surilgan g‘oya bilan tanishtirish;
- b) **tarbiyaviy:** O‘zaro hurmat hissini singdirish;
- c) **rivojlantiruvchi:** badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatish.

Darsning turi :Yangi ma‘lumot berish.

Darsning jihozi : darslik, tarqatma materiallar, AKT vositalari.

Darsning metodi: “Kim chaqqon”, “Svetofor”, “T-chizmasi”, “Mening fikrim”.

Darsning shiori:

Kishan kiyma, bo‘yin egma

Ki sen ham hur tug‘ulg‘onsen!

Darsning borishi :

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;

c) kirish suhbat, o'quvchilarning darsga tayyorgarligiga e'tibor berish, "Siyosiy daqiqa" o'tkazish.

Dars o'quvchilarni guruhlariga bo'lib olib boriladi. Guruhlarga "Ko'ngil", "Xalq" deb nom beriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu Cho'lponning hayoti va ijodini o'rganish bo'lib, o'qituvchining avvalgi darsda bergan qo'shimcha ma'lumotlari va darslikdagi materiallar asosida mavzu mustahkamlanadi.

"Kim chaqqon?" usuli.

Bunda har bir guruh Cho'lpon hayoti va ijodiga oid ma'lumot beradi. Shart shuki, bir marta aytilgan ma'lumot qaytarilmasligi kerak.

Masalan :

- 1) Cho'lpon 1897-yil Andijonda tug'ilgan.
- 2) Otasi Sulaymon "Rasvo" taxallusi bilan hajviy she'rlar yozgan.
- 3) 1914-yilning 18-aprelida "Sadoyi Turkiston" gazetasida "Turkistonli qarindoshlarimizga" degan she'ri bosildi.
- 4) U "Qalandar", "Mirza qalandar", "Andijonlik", "Cho'lpon" kabi taxalluslar bilan ijod etgan.
- 5) U "Go'zal", "Ko'ngil", "Buzilgan o'lkaga", "Xalq" kabi she'rlar yozgan.
- 6) 1923-yilda Cho'lpon Andijonda yangi chiqa boshlagan "Darxon" gazetasiga ishga yuborildi.
- 7) 1921-yilda "Yorqinoy" va "Halil farang" singari asarlar yozib, milliy dramaturgiyani rivojlantirdi.
- 8) Uning "Kecha va kunduz" asari bizga ma'lum.
- 9) Cho'lpon badiiy tarjimalar bilan ham shug'ullangan. Shekspirning "Hamlet", Pushkinning "Boris Gudunov", Gorkiyning "Ona" kabi asarlarini rus tilidan o'zbek tiliga o'girgan.
- 10) Cho'lpon 1937-yil qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlanadi.

Har bir ma'lumot bergan guruh rag'batlantirib boriladi. **“Xotira mashqi”** o'tkaziladi. Bunda guruhlar Cho'ponning she'rlarni to'ldiradilar.

1-guruh :

“ Ko'ngil “ she'ri.

_____, sen _____ nega

Kishanlar birla _____ ?

_____, na doding bor,

Nechun sen muncha _____ ?

_____ dilni og'ritmas,

Tubanlik _____ ketmasmi ?

_____ parchalanmasmi ?

Qilichlar _____ sinmasmi ?

_____, o'lmagansan ,

Sen –da odam, _____

Kishan _____ ,

Bo'yin _____ ,

_____ hur tug'ilgansan !

2 – guruh:

“ Yong'in “ she'rini to'ldiradi.

Nega manim _____ tun va kun

_____ shumli tovushi baqirar ,

Nega _____ borlig'imga _____

Va har kulgi _____ o't qo'yar ?

_____ kabi yiqiq _____, _____,

Boyqushlarga _____ ko'ksin _____ ?

_____, tanish – bilish, _____

Yurtni tashlab , _____ qochganmi ?

Shunday katta _____ yonmagan ,

_____, talanmagan _____ ?

Bir ko'z _____ qonli yoshi _____ ,

_____ umidsizmi , siniqmi _____ ?

III. Yangi mavzu bayoni: Roman mazmuni yuzasidan ma'lumot beriladi. O'zbek romanchiligida yangi janr boshlab bergan Cho'lpon o'zining "Kecha va kunduz" romanida o'tmishning qora kunlari yuzasidan bizga ma'lumot beradi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'zbek adabiyotining realistik yo'nalish kasb etib, taraqqiyot sari olg'a siljishini ta'minlagan talantli ijodkorlardan biridir. U murakkab bir davrda yashashiga qaramay, badiiy ijodining juda ko'p janrlarida o'z qalamini sinab ko'rdi va o'zining iqtidorli so'z ustasi ekanligini ko'rsatdi. Uning haqiqiy nafosat ruhi bilan yo'g'rilgan samimiy lirik she'rlari, davr ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq publisistika, xalqona ruh ufurib turgan dramasi, davrning ijtimoiy-mashiy masalalari aks topgan prozasi zamon adabiyotining dolzarb masalalariga munosabat tarzida taassurot qoldiruvchi adabiy-tanqidiy maqolalari ijodkor dahosining g'oyat yuksakligidan dalolat beradi.

Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asariga "O'tkan kunlar asari darajasida" deb baho berilgan. U o'zbek adabiyotidagi ilk roman – dilogiya bo'lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi "Kecha" 1933-1934-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to'liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho'lpon romaniga "Hamal keldi – amal keldi" maqolini epigraf qilib olgan.

Romanning "Kunduz" deb atalgan ikkinchi qismining taqdiri to'g'risida ma'lumot yo'q. Holbuki "Kecha"da tasvirlangan voqealarning mantiqiga ko'ra, romanning "Kunduz" qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qirim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi. Birinchi kitobdagi tasvir etilgan voqea Birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekiston viloyatlarining birida bo'lib o'tadi. Asardagi asosiy g'oya mavjud tuzumni tag -tomiri bilan o'zgartirishdir.

Asar qahramonlari: Zebi (15 yoshida beva qoladi, erining qotili sifatida tuxmatga qolib, 7 yilga Sibirga surgun qilinadi), Qurvonbibi (ahvoli o'zgargan obraz, Zebining onasi), Razzoq So'fi (kulishi kasal odamning kulishiday og'ir, ziqna odam, Zebining otasi, ishlamay tishlovchi, ta'magirlik va tekinxo'rlik orqasida kun ko'ruvchi inson), Miryoqub (dunyoqarashi o'zgargan obraz, shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadi, ezgulik bilan tubanlik o'rtasida harakat qiladi, Noyib to'ra uni amerikalik tadbirkorlarga o'xshatadi), Sharafiddin Xo'jayev (jadid), Akbarali mingboshi (odam shaklidagi it), Noyib to'ra, Zunnun (Akbarali mingboshi o'rniga osongina o'tirgan), Hokim to'ra, Poshshoxon (uning hiylasidan Akbarali mingboshi o'ladi, bir kishining o'limiga, bir kishining surguniga bevosita hamda bir oilaning barbod bo'lishiga bivosita aybdor bo'ladi), Mariya Ostrova (Miryoqub "bazzoz do'konidan o'ziga toza ko'yliklik tanlaganday" tanlab olgan obraz), Sultonxon ("Siz qancha sevinsangiz, men sizdan ortiqroq sevinaman! Siz quruq vahimani quchoqlab sevinasiz, men tirik va joni bor odamni quchoqlab yayrayman. Kim axmoq?!" degan), Saltanat, O'lmasjon (aravakash), Xadichaxon, Eshon, Obrezqora (shaharda bo'lsin, uyezdga bo'lsin, uni tanimagan odam yo'q, o'zi yerlilardan... Obrezqora – yerli xalqlardan chiqqan "advokat" deb ta'riflangan). Bu asardagi Sultonposhsha, Akbarali, Eshon, Noib to'ra kabilar tubanlik va razillik, faxsh va adolatsizlik olamining vakillaridir.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Svetafor" usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilarga qizil, sariq, yashil kartochkalar tarqatiladi. So'ng o'qituvchi oldindan tayyorlab kelgan asarga doir tezislarni o'qib eshittiradi. Bu fikrga qo'shilganlar yashil, inkor qilganlar qizil, ikkilanayotgan o'quvchilar sariq kartochkani ko'taradilar. So'ng o'z fikrlarini asoslaydilar.



“Svetofor” texnologiyasi.

Cho‘lonning “Kecha va kunduz” asaridagi Razzoq so‘fining “e’tiqodi” uning otalik tuyg‘usidan ustun edi.


“YO‘Q”



“HA”



“BILMADIM”




Shundan so‘ng o‘quvchilarga “T chizmasi”ni to‘ldirish topshirig‘i beriladi:



“Kecha va kunduz” asaridagi Miryoqub obraziga xos xususiyatlar:

T-Chizma	
Yaxshi fazilatlar	Salbiy xususiyatlar
<ul style="list-style-type: none">-Tadbirkor-Zakovatli-Ishbilarmon...	<ul style="list-style-type: none">-Yolg‘onchilik, -manfaatparastlik-Ayollarga suyagiyo‘q...

“Intervyu” usuli



- Bu jarayonda o'quvchilar muayyan asar qahramonlari haqida bir-birlaridan intervyu oladilar. Bunda birinchi o'quvchini "A", ikkinchi o'quvchini "B" deb belgilagan holda "A" "B" dan savollariga javob oladi. Uchinchi o'quvchi "V" esa intervyuning tayanch nuqtalarini yozib boradi.

So'ng, **“Mening fikrim”** o'yini orqali o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- Zebining taqdiriga uning o'zi aybdormi?
- Akbarali mingboshining o'limi podsho hukumati uchun ahamiyatlimi?
- Poshshaxonning qotillikka qo'l urishi asarda yetarlicha dalillanganmi?
- Sud jarayonining shoshqaloqlik va e'tiborsizlik bilan o'tkazilishini qanday izohlaysiz?
- Domla-imomning xarakterini va harakatlarini qanday izohlaysiz?
- Razzoq so'fining “e'tiqodi” va otalik tuyg'usi haqida nima deya olasiz?
- Asardagi Miryoqub qanday obraz?
- Zebi va A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” asaridagi Kumush obrazlarida umumiy jihatlar bormi?

V. O'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: “Zebi haqidagi o'ylarim” mavzusida uy inshosi yozib kelish.

3.2. Tajriba-sinov tahlili

Biz o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholash ko‘nikma va malakalarining bugungi kundagi holatini o‘rganish hamda tavsiya qilingan usullarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 34-umumta’lim maktabining 9-“V”, “G”, “D” sinflarida olib borildi.

9-“V” sinfnining 31 nafar o‘quvchisi hamda 9-“D” sinfnining 30 nafar o‘quvchilari nazorat sinfi sifatida olindi. Tajriba sinfi sifatida 9-“G” sinfnining 31 nafar o‘quvchisi olindi. Tajriba sinfidagi o‘quvchilarning 15 nafari bilan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari xususida individual va jamoaviy tarzda suhbatlar, munozaralar, so‘ngra sinfnining 31 nafar o‘quvchisi ishtirokida shu mavzuda ochiq dars o‘tildi. Ochiq darsda o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatishga alohida e’tibor qaratildi. So‘ng har uchala sinf o‘quvchilariga “Zebi haqida o‘ylarim” mavzusida uy inshosi yozish topshirildi.

Uy inshosi quyidagi mezonlar asosida “5” ballik tizimda baholandi:

- Inshoning mazmundorligi – 1 ball;
- o‘quvchining mustaqil fikrlaganligi – 1 ball;
- tanqidiy fikrning mavjudligi –1 ball;
- fikrlarning asoslanganligi – 1 ball;
- mantiqiy izchillikka rioya qilinganligi – 1 ball;


JAMI: 5 ball.

Nazorat va tajriba sinflarida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari
Tanqidiy baholash ko‘nikmalarini nazorat qilishga doir uy inshosi
bo‘yicha o‘quvchilar ko‘rsatkichlari


Sinflar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari			
		Yuqori	O‘rta	Quyi	Eng past
Nazorat (9-“V”)	31	7	9	12	3

Nazorat (9-"D")	30	6	8	12	4
Tajriba (9-"G")	31	18	10	3	0

Nazorat sinfi 9-"V" sinf ko'rsatkichlari:



Tajriba sinfi: 9-"G" sinf.



Jadval va diagrammadagi raqamlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat sinflaridagi ko'rsatkichdan ancha yuqori:

Yuqori: $58\% > 19\%$;

O'rta: $32\% > 29\%$;

Quyi: $10\% < 39\%$;

Eng past: $0 < 13\%$.

Demak, adabiyot ta'limida badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatishga doir nazorat natijalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

XULOSA

O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish jarayoni, nafaqat, muayyan dars, balki texnologik yondashuv asosida tashkil etiladigan o‘quv jarayoni sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Bu jarayonda qo‘yilgan maqsadga erishish imkonini beradigan metodik shakllar, usullar va vositalardan samarali foydalanish talab etiladi.

Biz tadqiqotimiz jarayonida shunga ishonch hosil qildikki, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatadigan didaktik jarayon va unda qo‘llanilgan usullar, metodlar, strategiya va texnologiyalar ta’lim jarayoniga izchil tatbiq etilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishimiz o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish usullariga bag‘ishlandi. Birinchi bobni **“Tanqidiy tafakkur – badiiy ochqich sifatida”** deb nomladik. Unda mustaqil va tanqidiy tafakkur haqida ma’lumot va uni shakllantirish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi hamda o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyati yuzasidan dastur va darsliklar tahliliga e’tiborimizni qaratdik. Biz tanishgan marerialardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchilarda badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari metodistlar tomonidan yetarlicha o‘rganilmagan. O‘rganilgan nazariy ma’lumotlar asosida adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bir qancha innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish adabiyot o‘qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biri degan xulosaga keldik. Shuningdek, ushbu bobda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga doir muammolar yuzasidan o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil qilindi.

Ikkinchi bob **“Uzluksiz ta’limda badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish metodikasi”** deb nomlanib, adabiyot darslarida badiiy asar tahlili orqali o‘quvchilarda erkin va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning mazmuni ko‘rib chiqildi va quyidagi xulosaga kelindi: badiiy asar tahlili davomida, eng

avvalo, o'quvchilarga asarning g'oyaviy mazmunini yetkazish, o'quvchilarda badiiy asarga nisbatan mustaqil va tanqidiy munosabatni qaror toptirish, badiiy asar qahramonlarini baholash ko'nikmalarini shakllantirish va shu asosda hayotiy muammolarga yechim topa olish malakalarini egallashlariga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Zero, yoshlarda sog'lom, mustaqil dunyoqarash, erkin va tanqidiy fikrlashning qaror topishiga erishish ularning vayronkor g'oyalar obyektiga aylanishining oldini olish hamda mafkuraviy immunitet tizimining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z chegaralaridan tashqarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va shu orqali ona Vatanga sadoqatli, xalqiga fidoyi yoshlarni tarbiyalash pedagoglar oldida turgan ustuvor vazifalardan bo'lib qoladi.

Shuningdek, ushbu bobda o'quvchilarda tanqidiy, tahliliy tafakkurni rivojlantirishda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim dars turlari va usullar, metodlar bo'yicha tavsiyalar berildi. Yuqorida biz o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish va shu orqali ularda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlarni qaror toptirishga qaratilgan darslarni "Svetofor", "T-chizmasi", "Klaster", "Tarozi", "Yelpig'ich", "Debatlar texnologiyasi – yozma bahslar" kabi usullardan foydalanish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o'tdik. Bundan tashqari, o'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'рни haqida fikr yuritildi va bu jarayonda savol va topshiriqlarning o'рни benihoya katta degan xulosaga kelindi.

Uchinchi bob esa **"Ishning amaliyotga tatbiqi"** deb nomlandi va ushbu bobda o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga doir ochiq dars ishlanmasi, tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun tayyorlangan materiallar va olib borilgan amaliy ishlar bo'yicha tahlil natijalari ko'rsatildi. Ushbu tahlil natijalariga ko'ra, tanqidiy baholashga o'rgatishning zamonaviy, interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashlarini shakllantirishga juda katta yordam berdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari samaradorlikni kafolatlashi, tizimlilik va izchillikni ta'minlashga xizmat qilishi, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda badiiy

asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatishning yangi interfaol usullariga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi haqidagi tadqiqot farazini to'liq tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda adabiyot darslarining o'rni beqiyos. O'quvchilarning olamga, odamlarga va o'z-o'ziga qarashlari, mustaqil va tanqidiy fikrlari aynan adabiyot darslarida, badiiy asar tahlili jarayonlarida shakllanadi. Badiiy asar tahlili, xususan, badiiy asar qahramonlari ustida amaliy ishlar olib borish, obrazlar ruhiyatini chuqur o'rganish va mushohada qilish o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, asar tahlilida tanqidiy tafakkur badiiy ochqich sifatida ham xizmat qiladi. Demak, o'quvchida tanqidiy baholash, tahliliy tafakkur rivojlangani sari badiiy asar mag'zini, qahramonlar ruhiyatini va asardan ko'zlangan maqsadni yanada teranroq anglay boshlaydi. Badiiy asardagi masalalarga, ziddiyatlarga yechim topgani sayin hayotiy muammolarga nisbatan immunitet hosil qila boradi. O'quvchilar tanqidiy fikrlash orqali o'z mustaqil fikrlariga ega bo'ladilar. Ular dalillar to'plab, tahlil qilib, fikrlarni taqqoslab o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topadilar va shu orqali bilimi va dunyoqarashini kengaytiradilar. Badiiy asardagi muammolarni yechish orqali hayotiy masalalarga yechim topish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017.
2. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. Karimov I. A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994.

II. Ilmiy-metodik adabiyotlar

4. Hoshimov K., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
5. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – T.: O‘zinkomsentr, 2003.
6. Husanboyeva Q. P. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ...ped.fan.dok. – T.: 2007.
7. Matjonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? –T.: O‘qituvchi, 1993.
8. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.: O‘qituvchi, 1996.
9. Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi (Adabiyot o‘qituvchilari va talabalar uchun qo‘llanma). – T.: RO‘MM, 1993.
10. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
11. Mirqosimova M. O‘quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o‘rgatish. –T.: O‘qituvchi, 1994.
12. Mirqosimova M., Usmonova O. Badiiy asar tahlili vositasida o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish usullari. –T.: 2012.
13. Mirqosimova M. Badiiy asar tahlili. –T.: 2007.
14. Niyozmetova R. X. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rgatish metodikasi. – T.: Fan, 2007.

15. Qozoqboy Yoʻldosh, Muhayyo Yoʻldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016.
16. Til va adabiyot taʼlimi jurnali. 2013. №12.
17. Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
18. Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
19. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 1996.
20. Zunnunov A, N.Xotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov. Adabiyot oʻqitish metodikasi. –T.: Oʻqituvchi, 1992.
21. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: Oʻqituvchi, 1997.
22. Umumiy oʻrta taʼlimning adabiyot fanidan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. –T.: 2017.
23. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Ona tili. Adabiyot. Oʻzbek tili. (5-9 sinflar). – T.: 2017.
24. Gʻoziyev E. Gʻ. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – T.: Oʻqituvchi, 1994.

III. Dissertatsiyalar

25. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped.fan.doktori...diss. – T., 1995.
26. Xodjayev B.X. Umumtaʼlim maktabi oʻquvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7-sinf tarix darslari misolida). Pedagogika fanlari nomzodi...dis. – T., 2009.
27. Yaminova S.H. Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariy oʻqitish usulidan foydalanish: Pedagogika fanlari nomzodi...dis. – T., 1997.

28. Усарова Г. Она тили дарсларида кичик гуруҳларда ишлаш самарадорлигини ошириш усуллари (мактаб ва академик лицейлар мисолида). Магистрлик диссертацияси. – Т., 2015.

IV. Badiiy adabiyotlar

29. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. II jild. – Т.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.

30. Said Ahmad. Ufq. –Т.: Sano-standart, 2016.

V. Internet saytlari

31. www.ziyonet.net

32. www.edu.uz

33. www.google.uz

34. [e-adabiyot .uz](http://e-adabiyot.uz)

35. www.library.uz